

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI

TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLARNI  
AMALGA OSHIRISH MILLIY MARKAZI

## O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan

# AXBOROTNOMA

1

(Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining aniq, tabiiy va filologiya fanlari  
o'quituvchilari, soha mutaxassislari, 7–11-sinf, akademik litsey va  
kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun mo'ljallangan  
test topshiriqlari to'plami)



“O'QITUVCHI” NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT — 2020

**Tuzuvchilar:**

- A.A.Ismailov** – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori – PISA xalqaro tadqiqoti milliy loyiha menejeri;
- X.J.Daminov** – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori o‘rnibosari;
- N.A.Karimov** – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bo‘lim boshlig‘i;
- X.P.Ahmedov** – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bo‘lim boshlig‘i;
- G.O.Tog‘ayeva** – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bosh mutaxassis;
- Z.A.Kosimova** – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bosh mutaxassis.

**Taqrizchilar:**

- M.T.Ergasheva** – A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri, biologiya fanlari nomzodi, dotsent;
- K.Q.Jalilov** – Testolog mutaxassis, London Universiteti Kolleji Ta’lim institutining o‘quv dasturlari, pedagogika va ta’limda baholash yo‘nalishi magistri;
- R.M.Muxtorova** – Toshkent viloyati Piskent tumani 6-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliv toifali informatika va matematika fani o‘qituvchisi.

**Ilmiy-metodik maslahatchilar:**

- L.O.Roslova** – Rossiya ta’lim akademiyasining Ta’limni rivojlantirish strategiyasi instituti Matematik ta’lim laboratoriysi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi;
- A.Y.Pentin** – Rossiya ta’lim akademiyasi Ta’limni rivojlantirish strategiyasi instituti tabiiy fanlar ta’limi markazi mudiri, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

Mazkur axborotnama (test topshiriqlari to‘plami) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (*Organisation for economic co-operation and development*) tomonidan o‘tka-ziladigan PISA (*The Programme for International Student Assessment*) tadqiqoti doirasida foydalilanilgan materiallar asosida tuzilgan.

Unda o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligi hamda kreativ fikrlashini baholashga mo‘ljallangan topshiriqlar namunalarini, ularni yechish bo‘yicha tavsiyalar hamda baholash mezonlari keltirilgan.

Axborotnama (test topshiriqlari to‘plami)dan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining aniq, tabiiy va ona tili va adabiyot fanlari o‘qituvchilari, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 7–11- sinf, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari foydalanishlari mumkin.

Axborotnama O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ilmiy kengashining 2020-yil 9-iyundagi yig‘ilishining (3-son bayonnomasi) qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	4
<b>Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash bo‘yicha topshiriqlardan namunalar.....</b>	7
1. Fermalar.....	9
2. Lishayniklar .....	11
3. Olmalar.....	15
4. Tangalar.....	20
5. Qit’a maydoni.....	22
6. Bo‘yning o‘sishi.....	26
7. Pitsalar .....	30
8. Shakllar.....	31
9. Poyga mashinasi tezligi.....	36
10. Uchburchaklar.....	39
11. O‘g‘riliklar.....	40
12. Tormozlanish.....	43
13. Duradgor.....	46
14. Hovli.....	48
15. Dori konsentratsiyasi.....	49
16. Qurilish bloklari .....	52
17. Internet orqali (onlayn) suhbat.....	55
18. Valyuta kursi .....	57
19. Reaksiya vaqtি .....	59
20. Eksportlar .....	61
<b>Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini baholash bo‘yicha topshiriqlardan namunalar.....</b>	63
1. Barqaror baliqchilik xo‘jaligi.....	67
2. Energiya tejovchi uy.....	70
3. Issiq havoda yugurish .....	76
4. Moviyrang elektr stansiyasi .....	87
5. Qiyalikni tadqiq etish .....	89
6. Yerosti suvlarini olish va zilzilalar .....	92
<b>Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha topshiriqlardan namunalar.....</b>	97
1. Sigir suti.....	101
2. Parrandachilik forumi.....	109
<b>Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini baholash bo‘yicha topshiriqlardan namunalar.....</b>	118
1. Shashqol donasi va hikoyalar.....	121
2. Taomlar festivali logotipi.....	124

## KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunararlarni egallashi, jismonan va ma’nani yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste’dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish hamda 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlari-ga munosib tayyorgarlik ko‘rish vazifalari belgilab berildi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining ta’lim tizimidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazuvchi hamda islohotlarni amalga oshirishda ko‘maklashuvchi nufuzli xalqaro tashkilotlar mavjud. O‘zbekistonning ushbu tadqiqotlardagi ishtiroki va natijalari dunyo hamjamiyatida umum-e’tirof etilishi, yosh avlodni xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda yangi innovatsion usullarda ta’lim olishini ta’minalash hamda olgan bilimlarini amalda samarali qo’llay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) turli sohalarda yuzaga kelgan muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib boradi. Jumladan, ushbu tashkilot negizida ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan umumiyy o‘rta ta’limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) – O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta’lim sohasiga murojaat etishining boisi, har qanday soha uchun kadrlar avvalo maktablarda, oddiy sinfxonalarda ulg‘ayishidir. Shu ma’noda OECD tashkiloti a’zo davlatlarning ta’lim tizimiga qancha mablag‘ sarflayotgani va ular nechog‘li samara berayotgani reytingini tuzishni maqsad qildi. Keyinchalik bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqishi ortib, bugungi kunda tashkilotga a’zo davlatlar soni ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib, PISA xalqaro dasturi reytingida jahoning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni o‘tkazish orqali o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan milliy tizimni yaratish vazifalari belgilangan.

Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi doirasida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida urg‘u bergen holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim

dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Shu asosda o‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur (PISA), boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasi ni baholash xalqaro dasturi (PIRLS), o‘quvchilarning matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash dasturi (TIMSS), rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim berish muhitini hamda ularning ish sharoitlarini o‘rganish bo‘yicha xalqaro baholash (TALIS) dasturlarida ishtirok etishga kirishildi.

Ushbu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Milliy markazga xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O‘zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minalash, xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabi vazifalar yuklatildi.

Ta’lim sifatini baholashga yo‘naltirilgan PISA singari xalqaro baholash dasturlari O‘zbekistonda ilk marta o‘tkazilayotganligi sababli ularni shaffof va obyektiv o‘tkazish soha xodimlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Bu borada pedagog kadrlarning xalqaro tadqiqotlar haqidagi tasavvurlarini boyitish, shu orqali ta’lim sifatini oshirishga hissa qo‘sish maqsadi da avvalgi tayyorlangan metodik qo’llanmalar, topshiriqlar to‘plami, mashq daftarlарining mantiqiy davomi ushbu axborotnama tayyorlandi.

Mazkur axborotnama (test topshiriqlari to‘plami) PISA dasturida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligi hamda innovatsion yo‘nalish sifatida kreativ fikrlash darajasini baholash yo‘nalishiga oid ma’lumotlar va topshiriqlar asosida tayyorlangan bo‘lib, unda 2000–2015-yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda foydalilanigan topshiriqlardan namunalar, ularni yechish bo‘yicha tavsiyalar hamda baholash mezonlari keltirilgan.

Axborotnomadan umumta’lim muassasalarida tegishli fanlar doirasida, sinfdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarning savodxonligini baholash va oshirish, berilgan topshiriqlarni yechish orqali ularning ijodiy, mantiqiy, tanqidiy fikrlash va egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo’llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, 2021-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan, ammo COVID-19 pandemiyasi sababli 2022-yilga ko‘chirilgan PISA tadqiqotiga tayyorgarlik ko‘rishda foydalaniш uchun tavsiya etiladi.

Axborotnomada berilgan topshiriqlardan umumiy o‘rta ta’lim muassalarining 7-11-sinf, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini mustaqil ravishda o‘zlarining maktabda egallagan bilimlarini mustahkamlash, o‘zini sinab ko‘rish, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlan-tirish maqsadida foydalanishlari ham mumkin.

Axborotnomada berilgan topshiriqlar o‘qituvchi va o‘quvchilarga PISA tadqiqoti topshiriqlarining turlari, ularning berilish va bayon qilinish usul-lari, o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Topshiriqlar namunalari PISA tadqiqotining topshiriqlari bo‘lib, ular mu-ayyan fan yoki mavzularga mos kelishni ko‘zda tutmaydi. Shunday bo‘lsada, ba’zi hollarda fanlarning qaysidir mavzusiga tegishli bo‘lishi yoki hech qay-si mavzuga mos kelmasligi ham mumkin.

PISA tadqiqotlarining ochiq topshiriqlarini atroficha o‘rganish, shu top-shiriqlarga o‘xshash yoki ularni yechishga yordam beradigan topshiriqlar-ni ishlab chiqishga qiziqqan, ilmiy tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun mazkur axborotnomadagi materiallar munosib manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, PISA topshiriqlari yetuk tajribaga ega bo‘lgan xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bunga o‘xshash topshiriqlarni ishlab chiqish uchun alohida tayyorgarlik va chuqur bilim talab etiladi.

Axborotnomani takomillashtirish bo‘yicha takliflaringizni kutib qolamiz.

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Nurxon ko‘chasi, 21-uy.  
e-mail: [markaz@tdi.uz](mailto:markaz@tdi.uz)

# XALQARO TADQIQOTLARDA O'QUVCHILARNING MATEMATIK SAVODXONLIGINI BAHOLASH



## TOPSHIRIQLARDAN NAMUNALAR

PISA

## MATEMATIK SAVODXONLIK

Axborotnomaning ushbu bo‘limida PISA dasturi doirasidagi o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash yo‘nalishiga oid topshiriqlardan namunalar, ularni yechish bo‘yicha tavsiyalar va baholash mezonlari keltirilgan.

Shu o‘rinda matematik savodxonlik tushunchasi haqida qisqacha ta’rif berib o‘tish o‘rinli hisoblanadi. Matematik savodxonlik – bu shaxsnинг turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo‘llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o‘z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagи o‘rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o‘zini o‘zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo‘lgan, asosli hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

PISA topshiriqlarini yechishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda matematik masalani shunchaki yechish emas, balki masaladan oldin keluvchi muammoli vaziyatning tavsifi (konteksti)ni mulohaza yuritish orqali o‘rganib, uni matematik tilga o‘girib ifodalash, ya’ni matematik masalaga keltirish kerak bo‘ladi. Shundan keyingina masalani matematik bilimlarni qo‘llab yechishga kirishiladi.

PISA topshirig‘ining konteksti, bu – real hayotiy vaziyatning matnli tavsifidan iboratdir. Kontekst qaysi hayotiy vaziyatni ifodalashiga qarab, shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy va ilmiy kabi to‘rtta topshiriqlar turkumiga doir bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, berilgan topshiriqlar matematika fanining miqdorlar, o‘zgarish va munosabatlar, fazo va shakl, ma’lumot va noaniqliklar kabi to‘rtta mazmun sohalari bo‘yicha taqsimланади.


Axborotnomada xalqaro dastur doirasida 2000-yildan boshlab o‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar davomida matematik savodxonlik, uni baholash bo‘yicha tuzilgan topshiriqlardan namunalar keltirilgan.

## 1. FERMALAR

Mazkur suratda fermadagi tomi piramida shaklida bo'lgan uyning tasviri berilgan.



Quyida o'quvchi tomonidan fermadagi uy tomining matematik modeli o'lchamlari bilan birlgilidir keltirilgan.



Modelda keltirilgan chordoqning (mansarda) poli  $ABCD$  kvadrat shaklida. Tomni tutib turuvchi to'sinlar –  $EFGHKLMN$  blok (to'g'ri to'rtburchakli prizma)ning qirralari.  $E$  nuqta  $AT$  kesmaning o'rtasida,  $F$  nuqta  $BT$  kesmaning o'rtasida,  $G$  nuqta  $CT$  kesmaning o'rtasida va  $H$  nuqta  $DT$  kesmaning o'rtasida yotadi. Modeldagagi piramidaning har bir qirrasi 12 metr uzunlikka ega.



## 1-savol: Fermalar

*ABCD* chordoq polining yuzini hisoblang.

$$ABCD \text{ chordoq polining yuzi} = \underline{\hspace{10em}} \text{ m}^2$$

### 1-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: fazo va shakl.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: qo‘llash.*

### 1-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit\* beriladi:

Kod 1: 144 (birlik ko‘rsatilgan).

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## 2-savol: Fermalar

Blokning gorizontal qirralaridan biri bo‘lgan *EF* kesmaning uzunligini hisoblang.

$$EF \text{ kesmaning uzunligi} = \underline{\hspace{10em}} \text{ m.}$$

### 2-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: fazo va shakl.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: qo‘llash.*

### 2-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 1: 6 (birlik ko‘rsatilgan).

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.

---

\* Xalqaro tadqiqotlarda “kredit” so‘zi tegishli topshiriq bo‘yicha olish mumkin bo‘lgan maksimal ballning ulushini anglatadi.



## 2. LISHAYNIKLAR



Global isish natijasida ba'zi muz qatlamlari erimoqda. Barcha muz qatlamlari erib tugagandan o'n ikki yil o'tib, qoyalarda lishayniklar deb nomlanadigan mayda o'simliklar o'sib chiqadi.

Har bir lishaynik taxminan doira shaklida o'sadi.

Mazkur lishaynik yoshi va doira diametri o'rta sidagi bog'liqlik quyidagi formula yordamida taqriban aniqlanishi mumkin:

$$d = 7,0 \cdot \sqrt{(t-12)} \text{ bo'lib, bunda } t \geq 12.$$

Bu yerda,  $d$  lishaynikning diametrini (millimetrlarda),  $t$  esa muz erib tugagandan keyingi yillar sonini bildiradi.



### 1-savol: Lishayniklar

Yuqoridagi formuladan foydalangan holda, muz erib tugagandan keyin 16 yil o'tib, lishaynikning diametri qancha bo'lishini hisoblang.

Hisoblashlarni ko'rsating.

#### 1-savol to'g'risida ma'lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: o'zgarish va munosabatlar.*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: qo'llash.*

#### 1-savolning baholash mezoni

Savolning maqsadi: O'quvchining berilgan formulani qo'llay olish qobiliyatini aniqlash.

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to'liq qabul qilinadi va to'liq kredit beriladi:

Kod 2: 14 mm (birliklar talab etilmaydi). Masalaning yechimi ko'rsatilishi yoki ko'rsatilmasligidan qat'iy nazar javob 14 mm bo'lgan taqdirdagina Kod 2 berilishi lozim.

**O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:**

Kod 1:

- ✓ Formuladagi qiymat to'g'ri qo'yilgan, ammo noto'g'ri javob berilgan yoki javob yozilmagan.
- ✓ Javoblar to'liq berilmagan (masalan,  $7\sqrt{4}$ ).

**O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo'lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo'lsa.

### To'g'ri javob namunalari

Kod 2:

$$d = 7,0 \cdot \sqrt{16-12} \quad 14 \text{ mm} \quad 14$$
$$d = 14$$

(E'tibor bering, javobda hisoblashlar to'g'ri bajarilgan, ammo birlik noto'g'ri ishlatalgan. Bunday javob texnik xatolik sifatida qabul qilinadi.)

$$d = 7,0 \cdot \sqrt{16-12}$$

$$d = 7,0 \cdot \sqrt{4}$$

$$d = 14 \text{ yil}$$

Kod 1:

$$d = 7,0 \cdot \sqrt{16-12}$$

$$d = 16$$

(javob noto'g'ri, lekin o'rniga qo'yish to'g'ri).

$$d = 7,0 \cdot \sqrt{16-12}$$

$$d = 7\sqrt{4}$$

(javob to'liq berilmagan).

Kod 0:

$$16$$



### 2-savol: Lishayniklar

Aziza ba'zi lishayniklarning diametrini o'lchab ko'rdi va ularning diametri 35 millimetр ekanligini aniqladi.

Bu yerda muzlik necha yil avval erib tugagan?

Hisoblashlarni ko'rsating.

## **2-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sohasi: o‘zgarish va munosabatlar*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: qo‘llash.*

### **2-savolning baholash mezoni**

Savolning maqsadi: O‘quvchilarning berilgan formulani qo‘llay olish qobiliyatini aniqlash.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 2: Masalaning yechilishi ko‘rsatilgan yoki ko‘rsatilmasligidan qat’iy nazar 37 yil (birliklar talab etilmaydi).

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:**

Kod 1: Formuladagi qiymatlarning o‘rniga qo‘yilishi to‘g‘ri, ammo noto‘g‘ri javob berilgan yoki javob yozilmagan.

36 yil yoki 38 yil. (O‘quvchilar saralash usulidan foydalanib, to‘g‘ri javobni topishlari mumkin.)

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.

### **To‘g‘ri javob namunalarini**

Kod 2:

$$\begin{array}{ll} 35 = 7 \cdot \sqrt{t-12} & 35 : 7 = 5 \\ 5 = \sqrt{t-12} & 7 \cdot 5 = 7 \cdot \sqrt{25} \\ 25 = t-12 & = 7 \cdot \sqrt{25+12} \\ t = 37 & = 7 \cdot 37 \\ & 37 \text{ yil} \end{array}$$

$35 : 7 = 5$  (Algebra jihatidan noto‘g‘ri tasvirlangan, ammo o‘quvchi bajarishga harakat qilgani ma’lum.)

$$5^2 = 25$$

$$25 + 12 = 37$$

$$t = 15 \quad d = 12,1$$

(E’tibor bering, 37 javobi to‘g‘ri tenglamaga kiritilgan.)

$$t = 25 \quad d = 25,2$$

$$t = 40 \quad d = 37,0$$

$$t = 35 \quad d = 33,6$$

$$t = 37 \quad d = 35$$

Shunday qilib, muzlik 37 yil avval erib tugagan.

$$35 = 7 \cdot \sqrt{(37 - 12)} = 7 \cdot \sqrt{25} = 7 \cdot 5 = 35$$

Kod 1:

$$35 = 7,0 \cdot \sqrt{t - 12}$$

$$35^2 = 7^2 \cdot t - 12$$

$$49t = 1237$$

$$t = 25$$

$$35 = 7,0 \cdot \sqrt{t - 12}$$

$$5 = \sqrt{t - 12}$$

$$25 = t^2 - 12^2$$

$$t = 13$$

$$35 = 7,0 \cdot \sqrt{t - 12}$$

$$5 = \sqrt{t - 12}$$

$$5 = \sqrt{t} - \sqrt{12}$$

Juda qiyin!

Kod 0:

$$35 = 7,0 \cdot \sqrt{t - 12}$$

$$28 = \sqrt{t - 12}$$

$$784 = t - 12$$

$$t = 796$$

$$40 \text{ yil}$$

### 3. OLMALAR

Bog'bon kvadrat shakldagi maydonga olma ko'chatlarini ekdi. Ko'chatlarni shamoldan himoyalash uchun ularning atrofini ignabargli daraxtlar bilan o'radi. Quyidagi chizmada olma ko'chatlari va shu ko'chatlarning ixtiyoriy sondagi ( $n$ ) qatorini himoyalash uchun ekilgan ignabargli daraxtlar tasvirlangan.



$n = 1$

$\times \times \times$

$\times \bullet \times$

$\times \times \times$

$n = 2$

$\times \times \times \times \times$

$\times \bullet \bullet \times$

$\times$

$\times \bullet \bullet \times$

$\times \times \times \times \times$

$n = 3$

$\times \times \times \times \times \times \times$

$\times \bullet \bullet \bullet \times$

$\times$

$\times \bullet \bullet \bullet \times$

$\times$

$\times \bullet \bullet \bullet \times$

$\times \times \times \times \times \times \times$

$n = 4$

$\times \times \times \times \times \times \times \times$

$\times \bullet \bullet \bullet \bullet \times$

$\times$

$\times \bullet \bullet \bullet \bullet \times$

$\times$

$\times \bullet \bullet \bullet \bullet \times$

$\times \bullet \bullet \bullet \bullet \times$

$\times$  – ignabargli daraxt ko'chatlari;  
 $\bullet$  – olma ko'chati.



#### 1-savol: Olmalar

Jadvalni to'ldiring:

No	Olma ko'chatlari soni	Ignabargli daraxt ko'chatlari soni
1	1	8
2	4	
3		
4		
5		

#### 1-savol to'g'risida ma'lumot

Matematikaga oid mazmun sohasi: o'zgarish va munosabatlardan.

Kontekst: kasbiy.

Aqliy faoliyat turi: ifodalash.

#### 1-savolning baholash mezoni

Jadvalni to'ldiring:

Nº	Olma ko‘chatlari soni	Ign bargli daraxtlar soni
1	1	8
2	4	16
3	9	24
4	16	32
5	25	40

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 21: Kiritilgan barcha 7 ta sonlar to‘g‘ri.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:**

[Mazkur kodlar jadvaldagi bitta xato yoki javob berilmagan variantlar uchun berilgan.  $n=5$  bo‘lganda, u qabul qiladigan qiymatlardan biri xato bo‘lsa, Kod 11 yoziladi va  $n=2$  yoki  $n=3$  yoki  $n=4$  ga teng bo‘lganda, u qabul qiladigan qiymatlardan biri xato bo‘lsa, Kod 12 yoziladi.]

Kod 11:  $n=2$ ,  $n=3$  va  $n=4$  bo‘lganda, u qabul qiladigan qiymatlar to‘g‘ri kiritilgan, ammo  $n=5$  bo‘lganda, u qabul qiladigan qiymatlardan biri xato yoki yozilmagan.

✓ Jadvalda kiritilgan “40” qiymati noto‘g‘ri; qolgan barcha qiymatlar to‘g‘ri.

✓ Jadvalda kiritilgan “25” qiymati noto‘g‘ri; qolgan barcha qiymatlar to‘g‘ri.

Kod 12:  $n=5$  bo‘lganda u qabul qiladigan sonlar to‘g‘ri, ammo  $n=2$  yoki  $n=3$  yoki  $n=4$  bo‘lganda u qabul qiladigan qiymatlardan biri xato yoki yozilmagan.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

[Mazkur kodlar ikkita yoki undan ortiq xatoliklar uchun.]

Kod 01:  $n=2$ ,  $n=3$  va  $n=4$  bo‘lganda kiritilgan barcha sonlar qiymatlari to‘g‘ri, ammo  $n=5$  bo‘lganda katakchalarga kiritilgan har ikkala sonlar noto‘g‘ri.

Jadvaldagи “25” va “40” sonlari noto‘g‘ri kiritilgan; qolgan barcha sonlar to‘g‘ri kiritilgan.

Kod 02: Boshqa javoblar.

Kod 99: Javob yozilmagan.



## 2-savol: Olmalar

Quyida olma ko‘chatlari va ignabargli daraxt ko‘chatlari sonini hisoblash uchun ishlataladigan ikkita formula berilgan:

$$\text{olma ko‘chatlari soni} = n^2;$$

$$\text{ignabargli daraxtlar soni} = 8n.$$

Bunda,  $n$  – olma ko‘chatlari qatori soni.

Olma ko‘chatlari soni ignabargli daraxtlar soniga teng bo‘ladigan  $n$  ning qiymatini toping va hisoblash usulini ko‘rsating.

### 2-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: o‘zgarish va munosabatlar.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: qo‘llash.*

### 2-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

[Mazkur kodlar turli usullardan foydalanib,  $n = 8$  bo‘lganda to‘g‘ri javoblarga nisbatan ishlataladi.]

Kod 11:  $n = 8$  bo‘lganda, masalaning yechilish usuli to‘g‘ri ko‘rsatilgan

$$\checkmark n^2 = 8n, n^2 - 8n = 0, \quad n(n - 8) = 0, \quad n = 0 \text{ va } n = 8,$$

shunday qilib,  $n = 8$ .

Kod 12:  $n = 8$  bo‘lganda hech qanday aniq yechilish usuli ko‘rsatilmagan yoki hech qanday ma’lumot yozilmagan.

- ✓  $n^2 = 8^2 = 64, 8n = 8 \cdot 8 = 64.$
- ✓  $n^2 = 8n.$  Bundan:  $n = 8.$
- ✓  $8 \cdot 8 = 64, n = 8.$
- ✓  $n = 8$
- ✓  $8 \cdot 8 = 8^2.$

Kod 13: Boshqa usullardan foydalanib, masalan, chizmani kengay tirish yoki boshqa shu kabi chizma chizib, tekshirib ko‘rish orqali  $n = 8$  topiladi.

[Mazkur kodlar turli usullardan foydalanib,  $n = 8$  bo‘lganda va  $n = 0$  javobi berilganda, to‘g‘ri javoblarga nisbatan ishlataladi.]

Kod 14: Kod 11 kabi (to‘g‘ri yechilish usulidan foydalanilgan), ammo har ikkala  $n = 8$  va  $n = 0$  javoblari kelib chiqadi.

$$n^2 = 8n, n^2 - 8n = 0, \quad n(n - 8) = 0, \quad n = 0 \text{ va } n = 8.$$

Kod 15: Kod 12 kabi (to‘g‘ri yechim ko‘rsatilmagan), ammo har ikkala  $n = 8$  va  $n = 0$  javoblari kelib chiqadi.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 00: Boshqa javoblar, jumladan  $n = 0$  javobi

✓  $n^2 = 8n$  (savoldagi jumlalar qaytarilgan).

✓  $n^2 = 8$ .

✓  $n = 0$ . Bir xil raqam chiqmaydi, chunki har bir olma ko‘chatlari uchun 8 tadan ignabargli daraxt ko‘chatlari to‘g‘ri keladi.

Kod 99: Javob yozilmagan.



### 3-savol: Olmalar

Aytaylik, bog‘bon ko‘proq olma ko‘chatlari bo‘lgan kattaroq bog‘ yaratmoqchi. Agar bog‘bon bog‘ni kengaytirmoqchi bo‘lsa, qaysi birining soni ko‘proq bo‘ladi: olma ko‘chatlari sonimi yoki ignabargli daraxt ko‘chatlar sonimi? Javobingizni qanday topganingizni tushuntiring.

### 3-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: o‘zgarish va munosabatlar.*

*Kontekst: kasbij.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 3-savolning baholash mezoni

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 21: Asosli tushuntirishga asoslangan to‘g‘ri javob (olma ko‘chatlari).

Masalan:

✓ Olma ko‘chatlari =  $n \cdot n$  va ignabargli daraxtlar =  $8 \cdot n$ , har ikkala formulada ham n ishlataligan, ammo olma ko‘chatlari uchun boshqa n bo‘lib, 8 qiymati o‘zgarmaydi. Olma ko‘chatlari soni tez ko‘payadi.

✓ Olma ko‘chatlari soni tez ko‘payadi, chunki bu sonni 8 ga ko‘paytirish o‘rniga uning kvadrati olinyapti.

✓ Olma ko‘chatlari soni kvadrat, ignabargli daraxt ko‘chatlari soni to‘g‘ri chiziqli ko‘rinishda. Shunday qilib, olma ko‘chatlari soni ko‘proq bo‘ladi.

✓ Javobi  $n = 8$  dan keyin,  $n^2$  ifoda  $8n$  dan oshishini grafikda ko‘rish mumkin. [E’tibor bering, agar o‘quvchi  $n^2$  va  $8n$  formulalarga asoslanib matematik tushuntirishlar bergen bo‘lsa, Kod 21 yoziladi.]

## **O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:**

Kod 11: Ma’lum misollarga yoki chizmadagi olma yoki ignabargli daraxt ko‘chatlari sonini kengaytirib chizilgan chizmalarga asoslanib berilgan to‘g‘ri javob – olma ko‘chatlari.

- ✓ Olma ko‘chatlari soni ko‘proq bo‘ladi, chunki agar biz avvalgi jadvaldan foydalansak, olma ko‘chatlari sonining ignabargli daraxtlar sonidan ko‘proq ekanini ko‘ramiz. Bu javob ayniqsa olma ko‘chatlari soni va ignabargli daraxt ko‘chatlari soni bir-biriga teng ekani ma’lum bo‘lganda aniqlashadi.
- ✓ Jadvalda olma ko‘chatlari soni ko‘proq bo‘lishi ko‘rsatilgan yoki  $n^2$  va  $8n$  formulalar o‘rtasidagi bog‘liqlik oydinlashsa, to‘g‘ri javob olma ko‘chatlari ekani ma’lum bo‘ladi, ammo bu javob Kod 21 kabi aniq ifodalanmagan.
- ✓  $n > 8$  bo‘lsa, olma ko‘chatlari ko‘proq bo‘ladi.
- ✓ 8-qatordan keyin olma ko‘chatlari soni ignabargli daraxt ko‘chatlari sonidan ko‘proq bo‘ladi.
- ✓ 8-qatorga yetganda ignabargli daraxt ko‘chatlari soni ko‘p bo‘ladi, keyin olma ko‘chatlari soni ulardan oshib ketadi.

## **O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 01: Hech qanday tushuntirish, noto‘g‘ri tushuntirish yoki yetarli darajada yoritilmagan tushuntirishlar yozilgan to‘g‘ri javob (olma ko‘chatlari).

- ✓ Olma ko‘chatlari.
- ✓ Olma ko‘chatlari, chunki ularning soni perimetrdan ko‘ra chizma ichida ko‘proq tasvirlanadi.
- ✓ Olma ko‘chatlari, chunki ular ignabargli daraxtlar bilan o‘ralgan.

Kod 02:


Boshqa javoblar:

- ✓ Ignabargli daraxtlar.
- ✓ Ignabargli daraxtlar, chunki har bir ekilgan olma ko‘chati qatoriga qo‘srimcha ignabargli daraxt ko‘chati kerak bo‘ladi, demak, ignabargli daraxt ko‘chatlari soni ko‘proq bo‘ladi.
- ✓ Ignabargli daraxtlar, chunki har bir olma ko‘chatiga 8 tadan ignabargli daraxtlar to‘g‘ri keladi.
- ✓ Mazkur savolning javobini bilmayman.

Kod 99: Javob berilmagan bo‘lsa.

## 4. TANGALAR

Sizdan yangi turdag'i tangalar yaratishni so'rashdi. Barcha tangalar doira shaklida, kumush rangli, ammo turlicha diametriga ega bo'lishi kerak.



Tadqiqotchilar ideal tangalar tizimi quyidagi talablarga javob berishi kerakligini aytishdi:

- ✓ tangalarning diametri 15 mm dan kam bo'lmasligi va 45 mm dan katta bo'lmasligi kerak;
- ✓ berilgan tanga diametridan keyingi tanga diametri kamida 30% katta bo'lishi kerak;
- ✓ tanga yasaydigan qurilma faqat butun sonli diametriga ega bo'lgan tangalar ishlab chiqarishga mo'ljallangan (masalan, diametri 17 millimetrlı tangalar ishlab chiqarilishi mumkin, ammo diametri 17,3 millimetrlı tangalar ishlab chiqarib bo'lmaydi).



### 1-savol: Tangalar

Sizdan yuqoridagi talablarga javob beradigan tangalar to'plamini ishlab chiqarish so'raladi. Ishni 15 millimetrlı tangalar ishlab chiqarishdan boshlashningiz kerak va sizning tangalar to'plamingizda imkonи boricha ko'proq tangalar bo'lishi kerak. Sizning tangalar to'plamingizdagi tangalarning diametri qancha bo'lishi kerak?

#### 1-savol to'g'risida ma'lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: qo'llash.*

#### 1-savolning baholash mezoni

Savolning maqsadi: Hisoblashlarni bajarishda murakkab ma'lumotlarni tushunish va ulardan foydalana olish.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 15 – 20 – 26 – 34 – 45. O‘quvchi tomonidan berilgan javobda mos diametrli tangalarning chizmalari aks ettirilgan bo‘lishi mumkin. Bu ham 1 raqami bilan kodlanadi.

Kod 8: O‘quvchi yuqoridagi uchta talabga mos keladigan tangalar to‘plamini yozadi, ammo kolleksiyalar soni yetarli emas, masalan,

15 – 21 – 29 – 39,

yoki

15 – 30 – 45,

yoki

birinchi uchta diametr to‘g‘ri, oxirgi ikkitasi noto‘g‘ri

(15 – 20 – 26 -)

yoki

birinchi to‘rtta diametri to‘g‘ri, oxirgi bittasi noto‘g‘ri

(15 – 20 – 26 – 34 – ).

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**


Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## 5. QIT'A MAYDONI

Quyida Antarktida xaritasi berilgan.



### 2-savol. Qit'a maydoni

Xarita masshtabidan foydalanib, Antarktida maydonining yuzini toping. Hisoblash tartibini va qanday hisoblaganingizni ko'rsating. (Hisoblash ishlaringizni yuqoridagi xarita ustiga chizib bajarishingiz mumkin.)

### 2-savol to'g'risida ma'lumot

Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar.

Kontekst: ilmiy.

Aqliy faoliyat turi: ifodalash.



## **2-savolning baholash mezoni**

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

[Mazkur kodlar to‘g‘ri usuldan foydalanib va to‘g‘ri javob olingan javoblar uchun mo‘ljallangan. Ikkinchisi raqam boshqa yondashuvni ko‘rsatadi.]

Kod 21: Kvadrat yoki to‘g‘ri to‘rtburchak chizish orqali taxminan hisoblangan – 12 000 000 km<sup>2</sup> va 18 000 000 km<sup>2</sup> o‘rtasida (birlik talab qilinmaydi).

Kod 22: Doira chizish orqali taxminan hisoblangan – 12 000 000 km<sup>2</sup> va 18 000 000 km<sup>2</sup> o‘rtasida.

Kod 23: Bir necha geometrik shakllarning yuzlarini qo‘sishish orqali taxminan hisoblangan – 12 000 000 km<sup>2</sup> va 18 000 000 km<sup>2</sup> o‘rtasida.

Kod 24: Boshqa to‘g‘ri usuldan foydalanib taxminan hisoblangan – 12 000 000 km<sup>2</sup> va 18 000 000 km<sup>2</sup> o‘rtasida.

Kod 25: To‘g‘ri javob berilgan (12 000 000 km<sup>2</sup> va 18 000 000 km<sup>2</sup> o‘rtasida), ammo masalaning yechilishi ko‘rsatilmagan.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:**

[Mazkur kodlar to‘g‘ri usuldan foydalanib, ammo noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan javob yozish uchun mo‘ljallangan. Ikkinchisi raqam javoblari to‘liq qabul qilinadigan kodlarning ikkinchi raqamiga mos holda boshqa yondashuvni ko‘rsatadi.]

Kod 11: Kvadrat yoki to‘g‘ri to‘rtburchak chizish orqali taxminan hisoblangan – o‘quvchi to‘g‘ri usuldan foydalangan, ammo noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan javob yozgan.

✓ o‘quvchi to‘g‘ri to‘rtburchak chizgan va uning enini bo‘yiga ko‘paytirgan, ammo berilgan javob taxminga yoki taxminiy fikrlashga asoslangan (masalan, 18 200 000);

✓ o‘quvchi to‘g‘ri to‘rtburchak chizgan va uning enini bo‘yiga ko‘paytirgan, ammo javobdagi 0 lar soni noto‘g‘ri qo‘yilgan (masalan, 4000 · 3500 = 140 000);

✓ o‘quvchi to‘g‘ri to‘rtburchak chizgan va uning enini bo‘yiga ko‘paytirgan, ammo xarita masshtabidan foydalanib kvadrat kilometrga aylantirishni unutgan (misol uchun, 12 cm · 15 cm = 180);

- ✓ o‘quvchi to‘g‘ri to‘rtburchak chizgan va qit‘a maydonini 4000 km·3500 km deb yozgan. Boshqa hech qanday yechilish usulidan foydalanmagan.

Kod 12: Doira chizish orqali aniqlangan – o‘quvchi to‘g‘ri usuldan foydalangan, ammo noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan javob yozgan.

Kod 13: Bir necha geometrik shakllarning yuzalarini qo‘sish orqali taxminan hisoblangan – o‘quvchi to‘g‘ri usuldan foydalangan, ammo noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan javob yozgan.

Kod 14: Boshqa usuldan foydalanib hisoblangan – ammo o‘quvchi noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan javob yozgan.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 01: O‘quvchi qit‘a maydonining yuzini hisoblash o‘rniga uning perimetrini hisoblagan:

- ✓ masalan, o‘quvchi 16000 km javobini bergen, chunki masshtabi 1000 kmga teng xaritani 16 martaga ko‘paytirgan.

Kod 02: Boshqa javoblar:

- ✓ masalan, 16000 km (masalaning yechilishi ko‘rsatilmagan va noto‘g‘ri javob berilgan).

Kod 99: Javob yozilmagan.

### **Yakuniy jadval**

Quyida berilgan jadvalda kodlar orasidagi bog‘liqlik ko‘rsatib o‘tilgan:

Qo‘llanilgan usul	Kod		
	<b>Javob to‘liq qabul qilinadi</b> To‘g‘ri javob: 12000000 km <sup>2</sup> va 18000000 km <sup>2</sup> orasida	<b>Javob qisman qabul qilinadi</b> O‘quvchi to‘g‘ri usuldan foydalangan, ammo noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan javob yozgan.	<b>Javob qabul qilinmaydi</b>


To‘g‘ri to‘rtburchak chizish orqali topilgan javob	21	11	—
Doira chizish orqali topilgan javob	22	12	—
Geometrik shakllarning yuzlarini qo‘sish orqali topilgan javob	23	13	—
Boshqa to‘g‘ri usullar	24	14	—
Hech qanday yechilish usuli ko‘rsatilmagan	25	—	—
Qit‘a perimetri hisoblangan	—	—	01
Boshqa noto‘g‘ri javoblar	—	—	02
Javob berilmagan	—	—	99

### ESLATMA:

Mazkur savolni kodlashda o‘quvchi javob uchun ajratilgan katakchaga yozgan javobini o‘qishdan tashqari, o‘quvchi berilgan xaritaga qanday chizmalar chizgani yoki belgilar qo‘yaniga ham e’tibor bering. Ko‘p hollarda, o‘quvchi masalani qanday yechayotganini so‘z orqali yaxshi ifodalab berolmaydi, ammo uning xarita bilan ishlaganini ko‘rib, uning masalaga qanday yondashganini bilib olishingiz mumkin. O‘quvchining bilimini tekshirishdan asosiy maqsad uning masala javobini ochib berishda so‘zlardan mohirona foydalanayotganini tekshirish emas. Asosiy maqsad o‘quvchi masalaning to‘g‘ri javobini qanday topganini tekshirishdan iborat. Shuning uchun, o‘quvchi hech qanday yechim yozmagan bo‘lsada, uning xarita bilan ishlaganiga, qanday formuladan foydalanganiga e’tibor bering va bularni masalaning yechimi sifatida qabul qiling.

## 6. BO‘YNING O‘SISHI

Yoshlarning bo‘ylari o‘smoqda. Quyidagi grafikda 1998-yilda Gollandiyada o‘smir yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalarning o‘rtacha bo‘ylari o‘lchamlari keltirilgan.



1998-yilda o‘g‘il bolalarning o‘rtacha bo‘yi

1998-yilda qiz bolalarning o‘rtacha bo‘yi



### 1-savol: Bo‘yning o‘sishi

1980-yilga nisbatan 1998-yildagi 20 yoshli qizlarning o‘rtacha bo‘yi 2,3 santimetrga o‘sgan va 170,6 santimetrni tashkil etgan. 1980-yilda 20 yoshli qizlarning o‘rtacha bo‘yi qancha bo‘lgan?

Javob: .....cm

### 1-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: o‘zgarish va munosabatlар.*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 1-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 1: 168,3 cm (o‘lchov birligi berilgan).

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## 2-savol: Bo‘yning o‘sishi

Grafikdan foydalanib, qaysi davrda qizlarning o‘rtacha bo‘yi shu yoshdagi o‘g‘il bolalarning bo‘yidan balandroq bo‘lganini aniqlang.

### 2-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: o‘zgarish va munosabatlar.*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 2-savolning baholash mezoni

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 21: O‘quvchi yillar orasidagi yoshdagi tafovutni to‘g‘ri ko‘rsatgan, ya’ni 11 yoshdan 13 yoshgacha;

- ✓ 11 yosh va 13 yosh oraliq‘ida;
- ✓ 11 yoshdan 13 yoshgacha qizlarning bo‘ylari o‘g‘il bolalarnikidan balandroq bo‘ladi;
- ✓ 11–13.

Kod 22: O‘quvchi 11 va 12 yoshga yetganlarida qizlarning bo‘ylari o‘g‘il bolalarnikidan baland bo‘lishlarini yozgan. (So‘zlar bilan ifodalangan mazkur javob to‘g‘ri, chunki unda 11 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan tafovut to‘g‘ri ko‘rsatilgan.).

- ✓ 11 va 12 yoshga yetganlarida qizlarning bo‘ylari o‘g‘il bolalarnikidan baland bo‘ladi;
- ✓ 11 va 12 yoshda.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:**

Kod 11: Boshqa javob variantlari (11, 12, 13), javob to‘liq qabul qilinadigan punktga kiritilmaydi;

- ✓ 12 yoshdan 13 yoshgacha;
- ✓ 12;
- ✓ 13;
- ✓ 11;
- ✓ 11,2 yoshdan 12,8 yoshgacha.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 00: Boshqa javoblar bo‘lsa;

- ✓ 1998;

- ✓ qizlar 13 yoshdan oshganlarida ularning bo‘ylari o‘g‘il bolalarnikidan balandroq bo‘ladi.
- ✓ qizlar 10 yoshdan 11 yoshga yetganlarida ularning bo‘ylari o‘g‘il bolalarnikidan balandroq bo‘ladi.

Kod 99: Javob yozilmagan.

### 3-savol: Bo‘yning o‘sishi

Berilgan grafikdan foydalanib, 12 yoshdan keyin qizlar bo‘yining o‘rtacha o‘sish darajasi sekinlashib borishini qanday aniqlash mumkinligini tushuntirib bering.

#### **3-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sohasi: o‘zgarish va munosabatlar.*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

#### **3-savolning baholash mezoni**

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Masalaning javobini yozishda grafikning egilishining “o‘zgarib” borayotganini ko‘rsata olish kerak. Bu bevosita yoki bilvosita bajarilishi mumkin. Kod 11 va kod 12 grafik egri chizig‘ining keskin o‘zgarishi tushuntirilgan holatda yoziladi, kod 13 qizlar bo‘yining 12 yoshdan bo‘y avvalgi va keyingi davrida o‘sish darajasini qiyoslash uchun yoziladi.

Kod 11: Qizlarning 12 yoshdan keyin o‘sish darajasida keskin o‘zgarish kuzatilgani matematik yechim bilan emas, balki so‘zlar bilan ifodalandigan:

- ✓ grafik yuqoriga qarab to‘g‘ri yo‘nalmasdan, u gorizontal holatda yo‘nalmoqda;
- ✓ egri chiziq gorizontal holatda yo‘nalmoqda;
- ✓ 12 yoshdan keyin grafik egri chizig‘i gorizontal holatda yo‘nalmoqda;
- ✓ qizlar uchun berilgan chiziq gorizontal holatda yo‘naladi, ammo o‘g‘il bolalar uchun berilgan chiziq tobora yuqoriga ko‘tarilishda davom etadi;
- ✓ qizlar uchun berilgan grafik gorizontal yo‘nalishda davom etadi, ammo o‘g‘il bolalar uchun berilgan grafik yuqoriga ko‘tarilib boradi.

Kod 12: Matematik amallardan foydalanib, 12 yoshdan keyin qizlar bo‘yining o‘sishi cheklanishini aniqlash mumkin:

- ✓ chizma yoyi tobora pasayib bormoqda;
- ✓ 12 yoshdan keyin chizmaning o‘zgarish sur’ati pasayadi;
- ✓ [o‘quvchi 12 yoshdan avval va keyin x o‘qiga nisbatan yoy burchagini hisoblagan.]

Umuman olganda, masalaning yechimida “pasayish”, “egilish” yoki “o‘zgarish sur’ati” kabi so‘zlar ishlataligani va bu so‘zlar matematik ifodalar sifatida qabul qilinadi.

Kod 13: Haqiqiy o‘sish darajasi qiyoslangan (qiyoslash bevosita amalga oshirilgan):

- ✓ 10 yoshdan 12 yoshgacha 15 santimetrga o‘sgan, ammo 12 yoshdan 20 yoshgacha o‘sish darajasi taxminan 17 santimetrni tashkil etgan;
- ✓ 10 yoshdan 12 yoshgacha o‘rtacha o‘sish darajasi yiliga 7,5 santimetrnini tashkil etgan, ammo 12 yoshdan 20 yoshgacha esa yiliga o‘rtacha o‘sish taxminan 2 santimetrnini tashkil etgan.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 01: O‘quvchi qiz bolalar bo‘yining o‘rtacha o‘sish darajasi o‘g‘il bolalarnikidan past bo‘lganini ko‘rsatib o‘tgan, ammo qizlar yoyining keskin o‘zgarib borishini yoki qizlar yoyininig 12 yoshdan keyingi holatini undan avvalgi holati bilan taqqoslamagan.

- ✓ qizlar yoyi o‘g‘il bolalar yoyidan pastda bo‘lgan. Agar o‘quvchi qizlar yoyi tobora pasayib borayotganini eslatib o‘tsa va o‘g‘il bolalar yoyi qiz bolalar yoyidan yuqorida ekanini yozsa, berilgan javob to‘liq qabul qilinadi.

(Kod 11, 12 yoki 13). Biz bu yerda qiz yoki o‘g‘il bolalar uchun berilgan yoylarni taqqoslamayapmiz, shuning uchun bunday taqqoslashlarga e’tibor bermaymiz va javobning qolgan qismiga asoslanib, fikr yuritamiz.

Kod 02: Boshqa noto‘g‘ri javoblar. Masalan, o‘quvchi yuqoridagi chizmaning xususiyatiga e’tibor qaratmagan, vaholanki, savol topshirig‘ida o‘zgarishlar chizmada qanday aks etgani so‘ralgan:

- ✓ qizlar tez voyaga yetadi.
- ✓ chunki qizlar o‘g‘il bolalardan tezroq balog‘atga yetadi.
- ✓ qizlar 12 yoshdan keyin o‘sishdan to‘xtaydi. [Qizlar odatta 12 yoshdan keyin o‘sishdan to‘xtashi haqida yozilgan, ammo chizma bo‘yicha hech qanday izoh berilmagan.]

Kod 99: Javob yozilmagan.

## 7. PITSALAR



Pitsaxonada qalinligi bir xil bo'lgan, turli o'lchamli doira shaklidagi ikki xil pitsa tayyorlanadi. Kichik pitsaning diametri 30 cm bo'lib, uning narxi 30 zed. Katta pitsaning diametri 40 cm bo'lib, uning narxi 40 zed.



### 1-savol: Pitsalar

Qaysi pitsaning narxi puliga ko'proq arziydi? Mulohazalaringizni yozing.

#### 1-savol to'g'risida ma'lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: mulohaza yuritish.*

#### 1-savolning baholash mezoni

Savolning maqsadi: Pulning qiymatini taqqoslashga doir masalalarini tushunish ko'nikmasidan foydalanish.

**O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to'liq qabul qilinadi va to'liq kredit beriladi:**

Kod 2: O'quvchi umumiylar mulohaza yuritib, pitsaning yuzi kattalashgan sari uning yuzi narxiga nisbatan kattalashishini va katta hajmdagi pitsa puliga ko'proq arzishini yozgan:

- ✓ har ikkala pitsaning diametrlari ularning narxlariga nisbatan bir xilda, ammo siz sotib oladigan pitsa miqdori yarim diametr kvadrati formulasidan foydalanib topiladi, shuning uchun agar siz

katta hajmdagi pitsa sotib olsangiz, uning puliga nisbatan ko‘proq pitsa olgan bo‘lasiz.

Kod 1: O‘quvchi katta hajmdagi pitsa o‘z narxiga nisbatan ko‘proq arzishini isbotlash uchun har bir pitsaning yuzi va narxlarini hisoblagan;

P kichik pitsaning yuzasi  $0,25 \pi \cdot 30 \cdot 30 = 225 \pi$ ; kichik pitsaning zedga nisbatan miqdori  $23,6 \text{ cm}^2$ ;

katta pitsaning yuzasi  $0,25 \cdot \pi \cdot 40 \cdot 40 = 400 \pi$ ; katta pitsaning zedga nisbatan miqdori  $31,4 \text{ cm}^2$ , shunday qilib, katta pitsa puliga ko‘proq arziydi.


Kod 8: Ularning ikkalasi ham puliga arziydi. (Mazkur javob alohida kodlanadi, chunki bir necha o‘quvchi ayni shu kabi javob berishini qayd etib o‘tmoxchimiz.)

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.

## 8. SHAKLLAR



### 1-savol: Shakllar

Yuqoridagi shakllardan qaysi birining yuzi kattaroq? Mulonazalaringizni tusuntiring.

#### 1-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: fazon va shakl.*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: mulohaza yuritish.*

## **1-savolning baholash mezoni**

Savolning maqsadi: Notekis shakllarning yuzalarini taqqoslash.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: O‘quvchi haqiqatga yaqin (to‘g‘riroq) mulohaza yuritib, *B* shaklni tanlagan:

- ✓ buning yuzi kattaroq, chunki qolgan shakllarning yuzalari ichkariga botgan.

Kod 8: O‘quvchi *B* shaklni tanlagan, ammo haqiqatga yaqin hech qanday mulohaza yuritmagan.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.

### **To‘g‘ri javob namunaları**

Kod 1:

- ✓ *B* shakl yuzani kamaytiradigan ichki botiqlarga ega emas.
- ✓ *A* va *C* shakllar esa ichki botiqlarga ega.
- ✓ *B* shaklning yuzi kattaroq, chunki uning yuzi to‘liq doirasimon shaklda, qolgan shakllar yuzalari qismlari o‘yib olingan doiraga o‘xshash.
- ✓ *B* shaklning yuzi kattaroq, chunki uning yuzida ochiqliklar yo‘q.



Kod 8:

- ✓ *B* shaklning yuzi kattaroq, chunki u kattaroq yuzaga ega.
- ✓ Doirasimon shaklning yuzi katta. Bu yaqqol ko‘rinib turibdi.
- ✓ *B* shakl katta, chunki u qolgan shakllardan kattaroq.

Kod 0:

- ✓ Barcha shakllar bir xil yuzaga ega.



## **2-savol: Shakllar**

*C* shaklning yuzini hisoblashda qo‘llaniladigan baholash usulini yozing.

## **2-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sobasi: fazo va shakl.*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: mulohaza yuritish.*

### **2-savolning baholash mezoni**

Savolning maqsadi: O‘quvchilarning notekis shakllar yuzlarini o‘lchash (hisoblash) strategiyasini baholash.

### **O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:**

Kod 1: Mantiqiy mulohaza:

- ✓ berilgan shakl ichiga kvadratlar chizing va shaklning yarmi to‘lganda kvadratlar sonini hisoblang;
- ✓ berilgan shaklning bo‘rtmalarini olib tashlang va olib tashlangan bo‘rtmalarni qayta terib, ularning ichiga kvadrat chizing va kvadrat tomonini o‘lchang;
- ✓ berilgan shaklga asoslanib, uning 3D modelini yasang va uni suv bilan to‘ldiring. Modeldagi suv miqdori va suvning chuqurligini o‘lchang. Olingan ma’lumotdan shakl yuzini hisoblang.

### **O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:**

Kod 8: Noto‘liq javoblar:

- ✓ o‘quvchi doirasimon shaklning yuzini topishga harakat qiladi va kesib olingan bo‘rtmalar yuzini ayirib tashlaydi. Shunday bo‘lsada, o‘quvchi kesib olingan bo‘rtmalar yuzini qanday topganini yozmagan;
- ✓ berilgan shaklning har bir bo‘rtmasi yuzi qo‘shib chiqilgan.

### **O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.

## **ESLATMA:**

Mazkur savolning asosiy jihatni shundaki, o‘quvchi shaklning yuzini topishda biror metod taklif qiladimi yoki yo‘qmi. (1, 8, 0) ko‘rinishidagi kodlash tartibi o‘quvchi masalaning yechimini yoritishda qanday ketma-ketlikka asoslangani bilan izohlanadi.

## To‘g‘ri javob namunaları

Kod 1:

- ✓ Berilgan shakl ichini shunday bir necha doira, kvadrat va boshqa asosiy shakllar bilan to‘ldirishingiz mumkinki, uning ichida bo‘sish joy qolmasin. Shakl ichiga chizilgan shakllarning yuzlarini hisoblab chiqing va qo‘sning.
- ✓ millimetrlı qog‘ozga berilgan shaklni qayta chizing va mazkur shakl nechta kvadratni egallashini hisoblang.
- ✓ teng o‘lchamli katakchalar chizing va hisoblang. Kichikroq katakchalar – yaxshiroq aniqlik. (Bunda o‘quvchining mulohazasi qisqartirib yozilgan, ammo o‘quvchining yozish mahoratiga ko‘p e’tibor qaratmasdan, ko‘proq e’tiborni u qanday usuldan foydalanayotganiga qaratamiz.)
- ✓ berilgan shaklning 3D hajmli modelini yarating va uni suv bilan to‘ldiring, keyin uni to‘ldirish uchun talab etilgan suv miqdorini o‘lchang.

Kod 8:

- ✓  $B$  shaklning yuzini toping, keyin kesib olingan bo‘rtmalar yuzlarini toping va ularning yuzlarini asosiy shakl yuzidan ayiring.
- ✓ Berilgan shaklni doirasimon shakldan ayiring.
- ✓ Har bir alohida kesib olingan bo‘rtmalar yuzlarini qo‘sib chiqing.
- ✓ Shunga o‘xhash shakldan foydalaning va uni suyuqlik bilan to‘ldiring.
- ✓ Chizmadan foydalaning.
- ✓  $B$  shakl yuzining yarmi.
- ✓ Har bir bo‘rtma necha  $\text{mm}^2$  dan iborat ekanini taxmin qiling va uni 8 ga ko‘paytring.



Kod 0:

- ✓ Ip oling va shaklning perimetrini o‘lchang. Ipnini doira yoyi bo‘ylab o‘rang va  $\pi r^2$  dan foydalanib, doira yuzini o‘lchang. (Bu yerda o‘quvchi qo’llagan usul noto‘g‘ri.)



### 3-savol: Shakllar

C shaklning perimetrini hisoblash usulini tushuntiring.

#### 3-savol to‘g‘risida ma’lumot

Matematikaga oid mazmun sohasi: fazo va shakl.

Kontekst: ilmiy.

Aqliy faoliyat turi: mulohaza yuritish.

### **3-savolning baholash mezoni**

Savolning maqsadi: O‘quvchilarning notekis shakllar yuzlarini o‘lchash (hisoblash) strategiyasini baholash.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:**

Kod 1: Mantiqiy mulohaza:

- ✓ berilgan shakl yoyi bo‘ylab ip torting va ipning uzunligini o‘lchang;
- ✓ berilgan shaklni qisqa, (deyarli) to‘g‘ri kesmalarga bo‘ling va ularni chiziq bo‘ylab joylashtiring. Hosil bo‘lgan chiziq uzunligini o‘lchang;
- ✓ o‘rtacha bo‘rtma uzunligini topish uchun shakldan chiqqan bo‘rtmalar uzunligini hisoblang va uni 8 (bo‘rtmalar soni) ga va 2 ga ko‘paytiring.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.

### **Javob namunalari**

Kod 1:


- ✓ Jun yoki ip!!!  
(Garchi bu javob qisqa bo‘lsa-da, o‘quvchi shaklning perimetrini aniqlashda ma’lum usuldan foydalangan).
- ✓ Berilgan shaklning tomonini bo‘laklarga ajrating. Har bir bo‘lakni hisoblang va ularni bir-biriga qo‘sding.  
(O‘quvchi har bir bo‘lak taxminan to‘g‘ri bo‘lishi kerakligini aytmasada, shaklni bo‘laklarga ajratish haqidagi mulohazadan foydalanib, har bir bo‘lak osonlikcha o‘lchanishi mumkinligini anglashi mumkin.)

Kod 0:

- ✓ Shakl yoyi bo‘ylab o‘lchang.  
(O‘quvchi ushbu javob bilan hech qanday o‘lchash usulidan foydalanmagan. Shunchaki “o‘lchang” deyish bilan shaklni qaytarzda o‘lchash kerakligi aytilmagan.)
- ✓ Shaklning ichki botiqlarini doira holatiga kelguncha kengaytiring.  
(O‘quvchi masalani yechish usulini taklif qilgan bo‘lsada, mazkur usul noto‘g‘ri.)

## 9. POYGA MASHINASI TEZLIGI

Ushbu grafikda poyga mashinasining tezligi o‘zining ikkinchi aylanishi-da 3 kilometrlik poyga maydonchasi bo‘ylab qanday o‘zgarishi ko‘rsatilgan.



### 1-savol: Poyga mashinasi tezligi

Poyga maydonining boshlang‘ich chizig‘idan uning eng uzun to‘g‘ri kesmasigacha bo‘lgan taxminiy masofa qancha?

- A) 0,5 km.
- B) 1,5 km.
- C) 2,3 km.
- D) 2,6 km.

### 1-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 1-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 1: B) 1,5 km.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## 2-savol: Poyga mashinasi tezligi

Ikkinchi aylanishda yo‘nalishning qaysi qismida avtomobil tezligi eng past bo‘lgan?

- A) Boshlang‘ich chiziqda.
- B) 0,8 kilometr atrofida.
- C) 1,3 kilometr atrofida.
- D) Poyga maydonining yarmida.

### 2-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: kasbijy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 2-savolning baholash mezoni

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: C) 1,3 km atrofida.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## 3-savol: Poyga mashinasi tezligi

Mashinaning poyga aylanish chizig‘ining 2,6 va 2,8 kilometrlari o‘rtasidagi tezligi haqida nima deya olasiz?

- A) Mashina tezligi o‘zgarmagan.
- B) Mashina tezligi oshmoqda.
- C) Mashina tezligi kamaymoqda.
- D) Grafikdan mashina tezligini aniqlab bo‘lmaydi.

### 3-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: kasbijy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 3-savolning baholash mezoni

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: B) Mashina tezligi oshmoqda.

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.


Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



#### 4-savol: Poyga mashinasi tezligi

Quyida beshta poyga aylanish chizig‘i tasvirlari berilgan:

Qaysi bir poyga aylanish chizig‘ida poyga mashinasi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan grafikdagi tezlikka ega bo‘lgan?



S – poyganing boshlanish nuqtasi.

#### 4-savol to‘g‘risida ma’lumot

Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.

Kontekst: kasbiy.

Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.

#### 4-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 1: B)

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## 10. UCHBURCHAKLAR




### 1-savol: Uchburchaklar


Quyidagi ta’rifga mos keladigan chizmalardan birini tanlang.

$PQR$  uchburchak  $R$  burchagi to‘g‘ri burchak bo‘lgan to‘g‘ri burchakli uchburchak hisoblanadi. Uchburchakning  $RQ$  tomoni  $PR$  tomonidan kichik.  $M$  va  $N$  nuqtalar  $PQ$  va  $QR$  tomonlar o‘rtasida yotadi.  $S$  nuqta uchburchak ichida yotadi.  $MN$  kesma  $MS$  kesmadan katta.


**A**




**B**




**C**



**D**



**E**



### 1-savol to‘g‘risida ma’lumot

Matematikaga oid mazmun sohasi: fazo va shakl.

Kontekst: ilmiy.

Aqliy faoliyat turi: mulohaza yuritish.

### 1-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 1: To‘g‘ri javob D.

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.


## 11. O‘G‘RILIKLAR



### 1-savol: O‘g‘riliklar

Televizion ko‘rsatuvda muxbir quyidagi diagrammani ko‘rsatdi va shunday dedi:

“Ushbu diagramma 1999-yilda sodir etilgan o‘g‘riliklar soni 1998-yilga nisbatan keskin ko‘payib ketganini ko‘rsatadi.”



Sizningcha muxbir yuqoridagi diagrammaga asoslanib to‘g‘ri xabar bergenmi? Javobingizni tushuntiring.

#### 1-savol to‘g‘risida ma’lumot

Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.

Kontekst: ijtimoiy.

Aqliy faoliyat turi: mulohaza yuritish.

#### 1-savolning baholash mezoni

#### ESLATMA:

[Quyidagi kodlarda qo‘llanilgan “Yo‘q” so‘zi diagrammadagi ma’lumotlarga nisbatan noto‘g‘ri talqin qilingan barcha mulohazalarni o‘z ichiga oladi. “Ha” so‘zi esa diagrammadagi ma’lumotlarga nisbatan to‘g‘ri talqin qilingan barcha mulohazalarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchining bilimini baholashda u tomonidan berilgan javoblar diagrammada berilgan ma’lumotlarga nisbatan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri talqin qilinganligiga e’tibor bering. “Ha” yoki “Yo‘q” so‘zlarining o‘zini kodlarga mos keladigan to‘g‘ri javoblar sifatida qabul qilmang.]

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 21: Yo‘q, xulosa noto‘g‘ri yozilgan. Muxbir tomonidan berilgan xabarda diagrammada aks etgan ma’lumotlarning oz qismi keltirilgan.

- ✓ Yo‘q, xulosa noto‘g‘ri. Javobda butun diagrammada aks etgan ma’lumotlar to‘liq ko‘rsatilishi kerak edi.
- ✓ Muxbir tomonidan to‘g‘ri xulosa qilingan deb o‘ylamayman, chunki butun diagramma ko‘rsatilganida edi, o‘g‘irlilik kam miqdorda ko‘payganini ko‘rish mumkin bo‘lar edi.
- ✓ Yo‘q, mos tushmaydi, chunki muxbir faqatgina diagrammaning yuqori qismidagi ma’lumotlarga tayanib xabar bergen. Agar butun diagrammaning o‘g‘riliklar sonini ko‘rsatuvchi chizig‘iga (0–520) nazar tashlasak, o‘g‘rilikning ko‘paymaganini ko‘rshimiz mumkin.
- ✓ Yo‘q, mos tushmaydi, chunki diagrammada o‘g‘riliklar soni ko‘payganga o‘xshaydi, aslida, raqamlarga e’tibor berilsa, o‘g‘riliklar ko‘paymaganini ko‘rshimiz mumkin.

Kod 22: Yo‘q, xulosa noto‘g‘ri yozilgan. Berilgan javobda o‘g‘rilikning o‘sishida nisbat va foiz miqdoriga nisbatan to‘g‘ri mulohaza yuritilgan.

- ✓ Yo‘q, mos tushmaydi. 10 bu jami 500 ta o‘g‘riliklarning soniga nisbatan taqqoslaganda katta o‘sish emas.
- ✓ Yo‘q, mos tushmaydi. Shunday qilib foizda ma’lumotlarga qarasak, o‘g‘riliklar soni faqatgina taxminan 2% atrofida oshganini ko‘rshimiz mumkin.
- ✓ Yo‘q. 8 ta o‘g‘irlilik holatlari 1,5% o‘sishni tashkil qilmoqda. Menimcha, bu katta ko‘rsatkich emas! Yo‘q, bu yil faqatgina 8 yoki 9 taga ko‘p o‘g‘irlilik holatlari ro‘y bergen. 507 ta o‘g‘riliklarning soniga nisbatan taqqoslaganda bu katta ko‘rsatkich emas.

Kod 23: Javob berishdan avval diagrammadagi ma’lumotlarga oid mulohazalar keltirilishi kerak:

- ✓ o‘g‘riliklar soni oshgan yoki oshmaganini aytishimiz qiyin. Agar 1997-yilda o‘g‘riliklar soni 1998-yildagi bilan bir xil bo‘lsa, 1999-yilda uni keskin oshgan deya olamiz;
- ✓ nimaning “oshganini” bilishning imkonи yo‘q, chunki bior narsa oshgan va kamaygan deyish uchun kamida ikkita o‘zgarishli ko‘rsatkich bo‘lishi kerak.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:**

Kod 11: Yo‘q, mos kelmaydi, ammo javobda batafsil ma’lumot berilmagan.

- ✓ Javobda faqat o‘g‘riliklarning miqdori o‘sishiga oid aniq ma’lumot berilgan, ammo umumiylar ma’lumotlar bilan taqqoslanmagan.
- ✓ Mos kelmaydi. O‘g‘riliklar soni 10 taga ko‘paygan. “Katta” so‘zi o‘g‘riliklar sonining haqiqiy oshishiga mos kelmaydi. O‘g‘riliklar soni faqatgina 10 taga oshgan va men buni “keskin” deya olmayman.
- ✓ 508 dan 515 ga oshgan o‘g‘riliklar soni katta o‘sish emas.
- ✓ Yo‘q, chunki 8 yoki 9 ta o‘g‘riliklar soni katta miqdor emas.
- ✓ Yo‘q, 507 dan 515 gacha oshgan, lekin bu katta o‘zgarish emas.

### **ESLATMA:**

Diagrammada o‘g‘riliklar sonini ko‘rsatuvchi shkala yetarli darajada aniqlikda berilmaganligi sababli, o‘g‘riliklar sonini 5 tadan 15 tagacha oshgan deb qabul qilish mumkin.

Kod 12: Yo‘q, mos tushmaydi. To‘g‘ri usuldan foydalanilgan, ammo hisoblashlarda kichik xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan.

- ✓ To‘g‘ri usuldan foydalanilgan va to‘g‘ri xulosa chiqarilgan, ammo hisoblab chiqilgan foiz 0,03% ni tashkil qiladi.

### **O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 01: Yo‘q. (Hech qanday izoh berilmagan, yetarlicha izohlanmagan yoki noto‘g‘ri izoh berilgan.)

- ✓ Yo‘q, yuqoridagi fikrga qo‘shilmayman.
- ✓ Muxbir “katta” so‘zini ishlatmasligi kerak edi.
- ✓ Yo‘q, mos tushmaydi. Muxbirlar doim bo‘rttirib gapiradi.

Kod 02: Ha, diagrammaning ko‘rinishiga e’tibor qaratilgan va o‘g‘riliklar soni ikki marta oshgani eslatilgan.

- ✓ Ha, diagramma balandligi ikki martaga oshgan.
- ✓ Ha, o‘g‘riliklar soni deyarli ikki marta oshgan.

Kod 03: Ha. (Kod 02 da berilgan izohlardan boshqa izohlar berilmagan yoki umuman hech qanday izoh berilmagan.)

Kod 04: Boshqa javoblar.


Kod 99: Javob yozilmagan.

## 12. TORMOZLANISH

Harakatlanayotgan avtomobilning to‘xtaguncha bosib o‘tadigan taxminiy masofasi quyidagilarning yig‘indisiga teng bo‘ladi:

- ✓ haydovchining tormozlashni boshlashi uchun zarur bo‘ladigan vaqt oralig‘ida bosib o‘tadigan masofasi (reaksiya vaqtি oralig‘i);
- ✓ tormozlash mobaynida bosib o‘tilgan masofa (tormozlanish masofasi).

Quyida berilgan “spiralsimon” diagramma yaxshi tormozlanish sharoitida (haydovchining hushyorligi, mashinaning shinalari va tormozlari a’lo darajada bo‘lishi, yuzasi yaxshi holatda bo‘lgan quruq yo‘l) ehtimoliy tormozlanish masofasi va tormozlanish masofasining tezlikka bog‘liqligini ko‘rsatadi.



### 1-savol: Tormozlanish

Agar avtomobil 110 km/h tezlik bilan harakatlanayotgan bo‘lsa, haydovchining reaksiya vaqtি mobaynida qancha masofa bosib o‘tiladi?

## **1-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### **1-savolning baholash mezoni**

Savolning maqsadi: Diagrammada aks ettirilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 22,9 metr (javob butun son bo‘lishi shart emas).

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## **2-savol: Tormozlanish**

Agar avtomobil 110 km/h tezlik bilan harakatlanayotgan bo‘lsa, avtomobilning to‘liq to‘xtashi uchun bosib o‘tilgan umumiylashtirish qancha?

### **2-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### **2-savolning baholash mezoni**

Savolning maqsadi: Diagrammada aks ettirilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 101 metr (javob butun son bo‘lishi shart emas).

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## **3-savol: Tormozlanish**

Agar avtomobil 110 km/h tezlik bilan harakatlanayotgan bo‘lsa, avtomobilning to‘liq to‘xtashi uchun qancha vaqt sarflanadi?

### **3-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

#### **3-savolning baholash mezoni**

Savolning maqsadi: Diagrammada aks ettirilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 5,84 sekund (javob butun son bo‘lishi shart emas).

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



### **4-savol: Tormozlanish**

Agar avtomobil 110 km/h tezlik bilan harakatlanayotgan bo‘lsa, tormoz bosilganda qancha masofa bosib o‘tiladi?

#### **4-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

#### **4-savolning baholash mezoni**

Savolning maqsadi: Diagrammada aks ettirilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 78,1 metr (javob butun son bo‘lishi shart emas).

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**



Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## 5-savol: Tormozlanish

Yaxshi tormozlanish sharoitida harakatlanayotgan boshqa haydovchining avtomobili to‘liq to‘xtashi uchun jami 70,7 metr masofani bosib o‘tdi. U tormozlanishdan avval qanday tezlik bilan harakatlanayotgan edi?

### 5-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: ilmiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 5-savolning baholash mezoni

Savolning maqsadi: Diagrammada aks ettirilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 90 km/h (javob butun son bo‘lishi shart emas).

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.


## 13. DURADGOR




### 1-savol: Duradgor



Duradgor 32 metrlik yog‘ochdan bog‘ atrofiga to‘sinq o‘rnatmoqchi. U to‘sinq yasash uchun quyidagi shakklardan birini tanlamoqchi.

**A**



**B**





32 metrlik yog‘och yordamida o‘rnatiladigan to‘sinqa nisbatan berilgan shakllarga “Ha” yoki “Yo‘q” javobini bering.

To‘sinq uchun tanlangan shakl	Ushbu shakldan foydalanib, 32 metrlik yog‘ochdan to‘sinq o‘rnatish mumkinmi?
A shakl	Ha/Yo‘q
B shakl	Ha/Yo‘q
C shakl	Ha/Yo‘q
D shakl	Ha/Yo‘q

### 1-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: fazo va shakl.*

*Kontekst: kasbijy.*

*Aqliy faoliyat turi: qo’llash.*

### 1-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 2: Barcha to‘rtala javob to‘g‘ri bo‘lganda.

A shakl Ha.

B shakl Yo‘q.

C shakl Ha.

D shakl Ha.

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 1: Uchta to‘g‘ri javob bo‘lganda.

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.

## 14. HOVLI



### 1-savol: Hovli

Nodir yangi uyining hovlisiga to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi yo‘lak qurmoqchi. Yo‘lakning uzunligi 5,25 metr, eni esa 3,00 metr. Buning uchun unga har kvadrat metrga 81 donadan g‘isht kerak bo‘ladi.

Nodirga yo‘lakni to‘liq qurib bitkazish uchun qancha g‘isht kerak bo‘ladi?

#### 1-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: fazo va shakl.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: qo‘llash.*

#### 1-savolning baholash mezoni

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 2: 1275, 1276 yoki 1275,75 (javob butun son bo‘lishi shart emas).

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:**

Kod 1: 15,75 (javob butun son bo‘lishi shart emas) yoki 5 m ga 3 m o‘lchamdagini maydon uchun 1215 ta g‘isht kerak bo‘ladi.

[Mazkur baholash tizimi berilgan maydonning alohida ajratilgan qismi uchun emas, balki butun maydonga nechta g‘isht kerakligini hisoblay oladigan o‘quvchilar bilimini baholashda ishlataladi. Quyida namunalar berilgan.]

yoki

o‘quvchi maydon yuzini hisoblashda xatolikka yo‘l qo‘ygan, ammo 81 ga to‘g‘ri ko‘paytirgan

yoki

o‘quvchi maydon yuzining qiymatini yaxlitlagan va 81 ga ko‘paytirgan.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.

#### Javob namunalari

Kod 2:

$$\checkmark 5,25 \cdot 3 = 15,75; \quad 15,75 \cdot 81 = 1275,75 \approx 1276$$


Kod 1:

- ✓  $5,25 \cdot 3 = 15,75$
- ✓  $15,75 \cdot 81 = 9000$
- ✓  $81 \cdot 15 = 1215; 1215 + 21 = 1236$
- ✓  $5,25 \cdot 3,0 = 15,75 \text{ m}^2$

Bundan:

$$15,75 \cdot 1275,75 = 1376 \text{ ta g'isht.}$$

(O‘quvchi masala yechimining birinchi qismini to‘g‘ri bajargan, ammo ikkinchi qismi noto‘g‘ri bajarilgan. Masala yechimining birinchi qismi inobatga olinadi, ikkinchi qismi esa inobatga olinmaydi. Shunday qilib, bu javob 1 raqami bilan kodlanadi.)



## 15. DORI KONSENTRATSIYASI



### 1-savol: Dori konsentratsiyasi

Bemor ayol shifoxonada penitsillin inyeksiyasini qabul qilmoqda. Penitsillin bemor tanasida asta-sekinlik bilan parchalanib, inyeksiyadan 1 soat o‘tib, uning 60 foizi faollahashadi.

Bu jarayon takrorlanadi: har 60 minutdan keyin avvalgi 60 minutda qabul qilingan penitsillining 60 foizi faollahashadi.

Aytaylik, bemor ayol ertalab 8:00 da 300 mg penitsillin dozasini qabul qildi. Quyidagi jadvalda 8:00 dan 11:00 gacha har 60 minutlik vaqt oralig‘ida bemor qonida faollahadigan penitsillin miqdori ko‘rsatilgan.

Vaqt	08:00	09:00	10:00	11:00
Penitsillin (mg)	300			

## 1-savol to‘g‘risida ma’lumot

Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar.

Kontekst: kasbiy.

Aqliy faoliyat turi: qo‘llash.

### 1-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 2: Jadvalning barcha uchta katakchasi to‘g‘ri to‘ldirilgan.

Vaqt	08:00	09:00	10:00	11:00
Penitsillin (mg)	300	180	108	64,8 yoki 65

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qisman qabul qilinadi va qisman kredit beriladi:

Kod 1: Jadvalning bitta yoki ikkita katakchasi to‘g‘ri to‘ldirilgan.


O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## 2-savol: Dori konsenratsiyasi



Po‘lat qon bosimini nazorat qilish uchun 80 mg dori qabul qilishi kerak. Quyidagi grafikda qabul qilingan dori ning boshlang‘ich miqdori va Po‘latning qonida bir, ikki, uch va to‘rt kundan keyin faollashadigan dori miqdori ko‘rsatilgan.

Birinchi kun oxirida dori preparatining qancha miqdori faollashadi?

- A) 6 mg.      C) 26 mg.  
B) 12 mg.      D) 32 mg.

### 2-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst:kashiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 2-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 1: D) 32mg.

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



### 3-savol: Dori konsentrasiyasi

Avvalgi savol uchun berilgan grafikdan ko‘rinadiki, Po‘latning qonida avvalgi qabul qilgan dorisi har kuni bir xil miqdori faollashadi.

Har bir kun oxirida, avvalgi qabul qilingan dori preparatining taxminan necha foizi faollashadi?

- A) 20%.      C) 40%.  
B) 30%.      D) 80%.

### 3-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst:kashiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 3-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 1: C) 40%.


O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.

## 16. QURILISH BLOKLARI


Salima quyidagi chizmada ko'rsatilgani kabi kichik kubchalardan blok yasashni yaxshi ko'radi:



Kichik kubcha


Salimada bunday kichik kubchalar juda ko'p. U boshqa blok yasashi uchun shunday kubchalarni bir-biriga mahkamlashda yelimdan foydalanadi.

Avval Salima *A* chizmada ko'rsatilgan blokni yasashi uchun sakkiz dona kichik kubchalarni bir-biriga mahkamladi:




*A* chizma

Keyin Salima *B* va *D* chizmalarda ko'rsatilganidek bloklarni yasadi:



*B* chizma



*C* chizma



### 1-savol: Qurilish bloklari

Salimaga *B* chizmadagi blokni yasashi uchun nechta kichik kubchalar kerak bo'ladi?

Javob: ..... kubchalar.

## **1-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sobasi: fazo va shakl.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: mulohaza yuritish.*

### **1-savolning baholash mezoni**

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 12 ta kubchalar.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## **2-savol: Qurilish bloklari**

Salimaga *C* chizmadagi blokni yasashi uchun nechta kichik kubchalar kerak bo‘ladi?

Javob: ..... kubchalar.

## **2-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sobasi: fazo va shakl.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: mulohaza yuritish.*

### **2-savolning baholash mezoni**

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 27 ta kubchalar.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda,  
ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



## **3-savol: Qurilish bloklari**

Salima *C* chizmada ko‘rsatilgan blokni yasashda unga o‘xshash blokni yasashi uchun kerak bo‘ladigan ko‘proq kubchalardan foydalanganini bilib qoldi. U *C* chizmada berilganidek kichik kubchalarni bir-biriga mahkamlash kerakligini tushundi, bunda blokning ichi bo‘sh bo‘lishi mumkin edi.

Salimaga *C* chizmada ko‘rsatilgan, ammo ichi bo‘sh bo‘lgan blok yasashi uchun eng kamida nechta kubcha kerak bo‘ladi?

Javob: ..... kubchalar.

### **3-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sohasi: fazo va shakl.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: mulohaza yuritish.*

### **3-savolning baholash mezoni**

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 26 ta kubchalar.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.



### **4-savol: Qurilish bloklari**

Endi Salima uzunligi 6 kubchadan, eni 5 kubchadan va balandligi 4 kubchadan iborat blok yasamoqchi. U qurilma ichini bo‘s sh qoldirib, imkonim boricha eng kam kubchalardan foydalanmoqchi.

Unga shunday ichida maksimal bo‘s joy bo‘lgan blok yasashi uchun eng kamida nechta kubcha kerak bo‘ladi?

Javob: ..... kubchalar.

### **4-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sohasi: fazo va shakl.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: mulohaza yuritish.*

### **4-savolning baholash mezoni**

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 96 ta kubchalar.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**


Kod 0: Boshqa javoblar bo‘lsa.

Kod 9: Javob berilmagan bo‘lsa.


## 17. INTERNET ORQALI (ONLAYN) SUHBAT

Mark (Sidney, Avstraliya) va Hans (Berlin, Germaniya) vaqtiga vaqtiga bilan internet orqali bir-birlari bilan suhbatlashadi. Onlayn tarzda suhbatlashish uchun ularning ayni bir paytda internet tarmog'idan foydalanishlari talab etiladi.


Suhbatlashishga eng qulay vaqtni topish uchun, Mark dunyoning turli mamlakatlaridagi vaqtni ko'rsatadigan soatlardan foydalanib, quyidagi ma'lumotni topdi:



Grinwich  
24:00(yarim tun)



Berlin  
tungi soat 1:00



Sidney  
10:00



### 1-savol: Internet orqali (onlayn) suhbat

Sidneyda soat 19:00 bo'lsa, Berlinda soat necha bo'ladi?

Javob: .....

### 1-savol to'g'risida ma'lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: o'zgarish va munosabatlar.*

*Kontekst: shaxsiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 1-savolning baholash mezoni

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to'liq qabul qilinadi va to'liq kredit beriladi:

Kod 1: Kunduzgi 10:00 yoki 10:00.

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Noto'g'ri javoblar yozilgan.

Kod 9: Javob yozilmagan.



### 2-savol: Internet orqali (onlayn) suhbat

Mark va Hans ertalabki 9:00 va 16:30 o'rtasida suhbatlasha olmaydi, chunki ular mакtabga borishlari kerak. Shuningdek, soat 23:00 dan ertalabki

7:00 gacha ham suhbatlasha olmaydi, chunki ular bu vaqtida uxlayotgan bo‘ladi.

Mark va Hans suhbatlasha olishlari uchun eng qulay vaqt qaysi? Jadvalga har bir shahar uchun mahalliy vaqtlarni yozing.

Joy	Vaqt
Sidney	
Berlin	

## **2-savol to‘g‘risida ma’lumot**

*Matematikaga oid mazmun sohasi: o‘zgarish va munosabatlar.*

*Kontekst: shaxsiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

## **2-savolning baholash mezoni**

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 9 soatlik farq rejimiga mos tushadigan istalgan vaqt yoki vaqt oralig‘i va quyida berilgan vaqt oraliqlaridan biri olinadi:

Sidney: 16:30 – 18:00; Berlin: 7:30 – 9:00

yoki

Sidney: 7:00 – 8:00; Berlin: 22:00 – 23:00

Sidney 17:00; Berlin 8:00.

## **ESLATMA:**

Agar javob ma’lum vaqt oralig‘ida berilgan bo‘lsa, uning chegaralari masala shartiga mos kelishi shart. Shuningdek, agar javobda ertalab, kechki payt va tungi paytlar ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ammo mazkur vaqtlarning son qiymati to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsa javob to‘g‘ri deb qabul qilinadi va to‘g‘ri javob sifatida kodlanadi.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Boshqa javoblar, javobda ko‘rsatilgan vaqtlardan biri to‘g‘ri, keyingilari esa noto‘g‘ri.

✓ Sidney 8:00, Berlin 22:00.

Kod 9: Javob yozilmagan.

## 18. VALYUTA KURSI

Singapurlik Mei-Ling 3 oy davomida ta’lim olish uchun Janubiy Afrika-ga borishga tayyorlanayotgan edi. U ma’lum miqdordagi Singapur dollarini Janubiy Afrika randiga almashtirishi kerak edi.



### 1-savol: Valyuta kursi

Mei-Ling Singapur va Janubiy Afrika valyuta kurslari o‘rtasidagi farqni aniqladi:

$$1 \text{ SGD} = 4,2 \text{ ZAR}$$

Ushbu valyuta kursi bo‘yicha Mei-Ling 3000 Singapur dollari miqdordagi pulni Janubiy Afrika randiga almashtirdi.

Mei-Ling qancha Janubiy Afrika randini oldi?

Javob: .....

### 1-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar.*

*Kontekst: ijtimoiy.*

*Aqliy faoliyat turi: qo’llash.*

### 1-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 1: 12 600 ZAR (javob butun sonda bo‘lishi talab etilmaydi).

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Noto‘g‘ri javoblar yozilgan.

Kod 9: Javob yozilmagan.



### 2-savol: Valyuta kursi

3 oydan keyin Singapurga qaytgach, Mei-Lingda 3900 ZAR miqdorida pul qolgan edi. U yana pulini Singapur dollariga almashtirmoqchi bo‘ldi va valyuta kursi quyidagicha o‘zgarganidan xabar topdi:

$$1 \text{ SGD} = 4,0 \text{ ZAR}$$

Mei-Ling Singapur dollarida qancha miqdorda pul oldi?

Javob: .....

## 2-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar.*

*Kontekst: ijtimoiy.*

*Aqliy faoliyat turi: qo‘llash.*

### 2-savolning baholash mezoni

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: 975 SGD (javob butun sonda bo‘lishi talab etilmaydi).

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 0: Noto‘g’ri javoblar yozilgan.

Kod 9: Javob yozilmagan.



## 3-savol: Valyuta kursi

O‘tgan uch oy davomida 1 SGD Singapur dollarining kursi Janubiy Afrika randiga nisbatan 4,2 dan 4,0 ZAR ga o‘zgardi.

Mei-Ling o‘zidagi Janubiy Afrika randini Singapur dollariga qaytib almashtirganda, valyuta kursining 4,2 dan 4,0 ZAR ga pasayishi Mei-Ling uchun foyda keltiradimi? Javobingizga izoh yozing.

## 3-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar.*

*Kontekst: ijtimoiy.*

*Aqliy faoliyat turi: mulohaza yuritish.*

### 3-savolning baholash mezoni

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 11: “Ha” javobi berilgan va javobga yetarlicha izoh berilgan.

✓ Ha, (1 SGD ga nisbatan) valyuta kursining pasayishi tufayli Mei-Ling Janubiy Afrika randiga nisbatan ko‘proq Singapur dollari oladi.

✓ Ha, bir dollarga nisbatan 4,2 ZAR miqdordagi pul jami 929 ZARga teng bo‘ladi. [Izoh: o‘quvchi SGD o‘rniga ZAR deb yozgan, ammo hisoblashlarni to‘g‘ri bajargan va ikkala valyuta o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri hisoblagan, shuning uchun bu xatolikka e’tibor bermasa ham bo‘ladi.]

✓ Ha, chunki u 1 SGD ni 4,2 ZAR dan olgan. Endi esa 1 SGD uchun 4,0 ZAR to‘layapti.

✓ Ha, chunki har bir Singapur dollarini 0,2 Afrika randiga arzon olgan.

- ✓ Ha, chunki 4,2 ga bo'lgandagi natija 4,0 bo'lgandagi natijadan kichik.
- ✓ Ha, pul almashtirish uning foydasiga bo'ldi, chunki agar valyuta kursi pasaymaganda u taxminan 50 dollar kamroq olar edi.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**

Kod 01: “Ha” javobi berilgan, ammo hech qanday izoh berilmagan yoki yetarlicha izoh berilmagan.

- ✓ Ha, valyuta kursining pasaygani yaxshiroq.
- ✓ Ha, bu Lei-Mingni foydasiga bo'ldi, chunki agar Afrika randining kursi pasaysa, u Singapur dollariga almashtirganda ko‘proq pul oladi.
- ✓ Ha, bu Mei-Ling uchun foyda keltiradi.

Kod 02: Noto‘g‘ri javoblar yozilgan.

Kod 99: Javob yozilmagan.

## 19. REAKSIYA VAQTI

Yaqin masofaga yugurish musobaqasida qo‘llaniladigan “reaksiya vaqt” start to‘pponchasidan o‘q uzilishi va sportchining start chizig‘idan yugurishni boshlagandagi vaqt oralig‘i sanaladi. “Final vaqt” esa reaksiya vaqt va yugurish vaqtidan iborat. Quyidagi jadvalda 100 metrlik yugurish musobaqasida ishtirok etayotgan 8 nafar sportchining reaksiya va final vaqlari berilgan.



Yo‘lak	Reaksiya vaqt (sekund)	Final vaqt (sekund)
1	0,147	10,09
2	0,136	9,99
3	0,197	9,87
4	0,180	Musobaqa yakunlanmadи
5	0,210	10,17
6	0,216	10,04
7	0,174	10,08
8	0,193	10,13



## 1-savol: Reaksiya vaqtি

Mazkur musobaqada ishtirok etuvchilar orasidan oltin, kumush va bronza medallari sohiblarini aniqlang. Quyidagi jadvalga medal sohiblarining yo'lak raqamlari, reaksiya va final vaqtlarini yozing.

Medal	Yo'lak	Reaksiya vaqtি (soniya)	Final vaqtি (soniya)
OLTIN			
KUMUSH			
BRONZA			

### 1-savol to'g'risida ma'lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma'lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 1-savolning baholash mezoni

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to'liq qabul qilinadi va to'liq kredit beriladi:

Kod 1:

Medal	Yo'lak	Reaksiya vaqtি (soniya)	Final vaqtি (soniya)
OLTIN	3	0,197	9,87
KUMUSH	2	0,136	9,99
BRONZA	6	0,216	10,04

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Noto'g'ri javoblar yozilgan.

Kod 9: Javob yozilmagan.



## 2-savol: Reaksiya vaqtি

Ma'lum bo'lishicha, hech qanday inson start to'pponchasidan o'q uzilganidan keyingi 0,110 sekunddan kam vaqt ichida reaksiya bildira olmagan.

Agar sportchi qayd etgan reaksiya vaqtি 0,110 sekunddan kam bo'lsa, "falstart" deb baholanadi, chunki sportchi o'q tovushini eshitishdan avval yugurishni boshlagan degan qarorga kelish kerak.

Agar bronza medali sohibining reaksiya vaqtি tezroq bo'lsa, u kumush medal sohibi bo'lishi mumkinmi? Javobingizni izohlang.



## 2-savol to‘g‘risida ma’lumot

*2-savolning baholash mezoni*

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: kasbiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:**

Kod 1: “Ha” javobi berilgan va javob yetarlicha izohlangan.

- ✓ Ha. Agar uning reaksiya vaqtি 0,05 sekundga tezroq bo‘lsa, u ikkinchi o‘ringa loyiq deb topiladi.
- ✓ Ha, agar uning reaksiya vaqtি 0,166 sekundga teng yoki undan kam bo‘lsa, u kumush medali sohibi bo‘lishi mumkin.
- ✓ Ha, 9,93 reaksiya vaqtি bilan u kumush medalni yutib olishi mumkin.

**O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:**


Kod 0: Boshqa javoblar berilgan, jumladan “ha” javobi berilgan, ammo javob yetarlicha izohlanmagan.

Kod 9: Javob yozilmagan.


## 20. EKSPORTLAR

Quyidagi diagrammalarda Valyuta birligi zed bo‘lgan Zedlandiya eksporti haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Million zed hisobida Zedlandiyaning qilinadigan eksport taqsimoti umumiylig yillik eksporti,  
1996-2000



2000-yilda Zedlandiyadan eksportni taqsimlash





## 1-savol: Eksportlar

1998-yilda Zedlandiyaning umumiy eksport hajmi (million zed hisobida) qancha bo'lgan?

Javob: .....

### 1-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: ijtimoiy.*

*Aqliy faoliyat turi: talqin qilish.*

### 1-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 1: 27,1 million zed yoki 27 100 000 zed yoki 27,1 (javob butun son bo‘lishi talab etilmaydi).

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Noto‘g‘ri javoblar yozilgan.

Kod 9: Javob yozilmagan.



## 2-savol: Eksportlar

2000-yilda Zedlandiyadan eksport qilingan meva sharbatining narxi qancha zedni tashkil qilgan?

- A) 1,8 million zed.
- B) 2,3 million zed.
- C) 2,4 million zed.
- D) 3,4 million zed.
- E) 3,8 million zed.

### 2-savol to‘g‘risida ma’lumot

*Matematikaga oid mazmun sohasi: ma’lumotlar va noaniqliklar.*

*Kontekst: ijtimoiy.*

*Aqliy faoliyat turi: qo‘llash.*

### 2-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

Kod 1: Javob E) 3,8 million zed.

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Kod 0: Noto‘g‘ri javoblar yozilgan.

Kod 9: Javob yozilmagan.

# XALQARO TADQIQOTLARDA O'QUVCHILARNING TABIIY FANLAR BO'YICHA SAVODXONLIGINI BAHOLASH



**TOPSHIRIQLARDAN  
NAMUNALAR**

**PISA**

## **TABIIY FANLAR SAVODXONLIGI**

PISA tadqiqoti 2015-yilda ilk marotaba kompyuterda o‘tkazildi. Mazkur tadqiqotda foydalanilgan topshiriqlarni ikkita guruhga ajratish mumkin: standart va interfaol topshiriqlar. Interfaol topshiriqlarning standart topshiriqlardan farqi shundaki, ularda tadqiq etilayotgan muammoli vaziyatni hal qilishda kompyuter simulyatsiyasidan foydalaniladi. O‘quvchilar virtual muhitda real vaqtda “tadqiqotchi” sifatida muayyan muammoni hal qilishga kirishadilar. Tadqiqotchilikning bunday ko‘rinishi faqat kompyuter yordamida amalga oshiriladi.

Har bir PISA topshirig‘i bir yoki bir nechta savolni o‘z ichiga oladi. Har bir savolning o‘z maqsadi bo‘lib, u quyidagi toifalarga ko‘ra tasniflanadi: kompetensiya, ilmiy bilish turi, kontekst, kognitiv daraja.

### **Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik kompetensiyaları**

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolar ni hal qila olishi tushuniladi.

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxsda quyidagi kompetensiyalar shakllangan bo‘ladi:

- ✓ hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish;
- ✓ ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash;
- ✓ ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish.

Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasi – texnologiyalar, tabiiy hodisa-jarayonlarning izohlarini bilish, taklif qilish va baholash. Bunda quyidagi ko‘nikmalar namoyish etiladi:

- ✓ tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish;
- ✓ izohlovchi modellar va tasvirlarni anglash, yaratish va ulardan foydalanish;
- ✓ tegishli prognozlar qilish va asoslash;
- ✓ izohlovchi farazlarni taklif etish;
- ✓ ilmiy bilishning jamiyat uchun amaliy ahamiyatini tushuntirish.

Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi – ilmiy tadqiqotlarni tasvirlash va baholash hamda muammolarni ilmiy asoslangan holda hal qilish yo‘llarini taklif etish. Bunda quyidagi ko‘nikmalar namoyish etiladi:

- ✓ berilgan ilmiy tadqiqotda o‘rganilayotgan muammoni aniqlash;
- ✓ ilmiy tadqiq etilishi mumkin bo‘lgan savollarni farqlash;
- ✓ berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usulini taklif etish;
- ✓ berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usullarini baholash;

✓ ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchlilagini ta'minlashda olimlar tomonidan qo'llaniladigan usullarni tavsiflash va baholash.

Ushbu savolda o'quvchilar quyosh radiatsiyasi, tuproq namligi va yog'ingarchilikning o'rtacha miqdorini o'z ichiga olgan natijalarni talqin qilgan holda ikkita fikrni baholashlari zarur.

## 6. YEROSTI SUVLARINI OLISH VA ZILZILALAR

### Topshiriqning umumiy tavsifi

Ushbu topshiriqda tabiiy jarayonlar va odam faoliyati natijasida zilzilalar yuzaga kelishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi. Stimullovchi materiallar yerdagi yoriqlar va zilzilalar orasidagi bog‘liqlikni ifodalaydigan rasm va matn, Yerning muayyan hududidagi kuchlanish darajasini ko‘rsatuvchi xarita va yerosti suvlarining olinishi natijasida zilzila sodir bo‘lgani haqidagi qisqa matnni o‘z ichiga olgan.

### Yerosti suvlarini olish va zilzilalar

#### 1-savol

PISA


?
◀
▶

**YEROSTI SUVLARINI OLISH VA ZILZILALAR**

**Savol 1/4**


*O‘ng tomondagи “Yerosti suvlarini olish va zilzilalar”ga qarang. Savolga javob yozing.*

Yoriqlarda tabiiy ravishda kuchlanish to‘planib boradi. Nima sababdan bunday bo‘ladi?

**YEROSTI SUVLARINI OLISH VA ZILZILALAR**

Yerning tosh qobig‘i uning tashqi qatlamini hosil qiladi. Ushbu qobiq litosfera plitalariga ajralgan bo‘lib, ular qisman erigan tosh qatlam ustida harakatlanadi. Plitalar yoriqlar deb ataladigan siniqlarga ega.

Yoriqlarda yig‘ilgan kuchlanish chiqib ketayotganda qobiqning ba’zi qismlarining siljishiga sabab bo‘ladi, natijada zilzilalar sodir bo‘ladi. Quyida yoriq bo‘ylab siljishga misol keltirilgan.



O'quvchilar stimullovchi materialdagi yoriqlarning tavsifi va tasviridan foydalanib, litosfera plitalarining harakati kuchlanishning to'planishiga va/ yoki yoriqdagi ishqalanish tufayli tosh plita yoki yerning turli yo'nalishlardagi harakati to'xtashini bildiradigan izoh berishlari kerak.

<i>Savolning tartib raqami</i>	CS655Q01
<i>Kompetensiya</i>	Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish
<i>Bilim – Sistema</i>	Fanning mazmuniga oid – Yer va fazo
<i>Kontekst</i>	Mahalliy/Milliy – Xavf-xatarlar
<i>Kognitiv daraja</i>	O'rta
<i>Savol shakli</i>	Ochiq javobli

Standart topshiriq

### **Yerosti suvlarini olish va zilzilalar 2-savol**

PISA

**Yerosti suvlarini olish va zilzilalar**  
Savol 2/4

*O'ng tomondagi "Yer qobig'idagi kuchlanish"ga qarang. Savolga javob berish uchun siljitim joylashtiring.*

O'ng tomondagi xaritada muayyan hududdagi Yer qobig'ining kuchlanish darajalari ko'rsatilgan. Ushbu hududdagi to'rtta joy A, B, C va D harflari bilan belgilangan.

Har bir joy ushbu hudud bo'ylab o'tadijan yoriq ustida yoki uning yonida joylashgan.

Ushbu joylarni eng kam zilzila sodir bo'lish xavfidan eng ko'p xavf tartibda joylashtiring.

**A    B    C    D**

Eng ko'p xavf:

Eng kam xavf:

**YEROSTI SUVLEARINI OLİSH VA ZILZILALAR**  
**Yer qobig'idagi kuchlanish**

**Yer qobig'idagi kuchlanish darajalari**

Eng yuqori kuchlanish

Eng past kuchlanish

O'quvchilar Yer qobig'idagi kuchlanish va zilzila orasidagi o'zaro bog'liqlik haqidagi o'z tushunchalaridan foydalanib, yoriqlar yaqinidagi to'rtta joyda zilzila xavfini prognoz qilishlari kerak. Rasmida zilzila sodir bo'lish xavfi eng yuqori bo'lgan joy "D", undan keyin "B", "C" va nihoyat, kuchlanish darajasi eng kam bo'lganligi sababli eng kam xavf bo'lgan joy "A" harfi bilan belgilangan.

<i>Savolning tartib raqami</i>	CS655Q02
<i>Kompetensiya</i>	Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish
<i>Bilim – Sistema</i>	Metodologik
<i>Kontekst</i>	Mahalliy/Milliy – Xavf-xatarlar
<i>Kognitiv daraja</i>	Quyi
<i>Savol shakli</i>	Bir nechta javob varianti tanlanadigan

Standart topshiriq

## Yerosti suvlarini olish va zilzilalar

### 3-savol

**Yerosti suvlarini olish va zilzilalar**  
Savol 3/4

O'ng tomondagи "2011-yil Lorkadagi zilzila"ga qarang. Savolga javob berish uchun tanlov ustiga bosing.

Qaysi kuzatish natijasi geoglarning farazini tasdiqlaydi?

- Zilzila Lorkadan ancha kilometr uzoq masofada qayd etilgan.
- Suv nasos yordamida tortib olingan hududlarda eng yuqori kuchlanish yuzaga kelganligi tufayli ular yoriq bo'ylab eng ko'p siljigan.
- Lorkada 2011-yil mayidagi zilzilaga qaraganda magnitudasi kattaroq zilzilalar sodir bo'lgan.
- Ushbu zilziladan so'ng Lorka yaqinidagi hududda bir necha marta kuchsizroq zilzilalar sodir bo'lgan.

**YEROSTI SUVLARINI OLISH VA ZILZILALAR**  
**2011-yil Lorkadagi zilzila**

Ispaniya, Lorka zilzilalar nisbatan tez-tez sodir bo'lib turadigan hududda joylashgan. 2011-yil mayida Lorkada zilzila sodir bo'ldi. Geoglarning fikricha, ushbu hududdagi avvalgi zilzilalardan farqli o'laroq, mazkur zilzilaga inson faoliyati, xususan, yerosti suvlarining nasos yordamida tortib olinganligi sabab bo'lishi mumkin. Geoglarning faraziga ko'ra, yer ostidan suvning olinishi yoriq yaqinida kuchlanishning ortishiga olib kelgan, bunda siljish yuz berib, oqibatda zilzila sodir bo'lgan.

O'quvchilar stimullovchi materialda keltirilgan faraz, ya'ni yerosti suvlarining olinishi yoriq yaqinida kuchlanishning ortishiga, oqibatda zilzila sodir bo'lganligini ifodalagan kuzatish natijasini aniqlashlari

kerak. Ikkinchı javob variansi (suv nasos yordamida tortib olingan hududlarda eng yuqori kuchlanish yuzaga kelganligi tufayli ular yoriq bo‘ylab eng ko‘p siljigan) to‘g‘ri javob bo‘lib, unda suvning nasos yordamida tortib olinishi va zilzila orasidagi bog‘liqlik asoslab berilgan.

<i>Savolning tartib raqami</i>	CS655Q03
<i>Kompetensiya</i>	Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish
<i>Bilim – Sistema</i>	Fanning mazmuniga oid – Yer va fazo
<i>Kontekst</i>	Mahalliy/Milliy – Xavf-xatarlar
<i>Kognitiv daraja</i>	O‘rta
<i>Savol shakli</i>	Bitta javob varianti tanlanadigan

Standart topshiriq

## Yerosti suvlarini olish va zilzilalar 4-savol

**Yerosti suvlarini olish va zilzilalar**

Savol 4/4

*O‘ng tomondagi “2011-yil Lorkadagi zilzila”ga qarang. Savolga javob berish uchun bir yoki bir nechta katakchalar ustiga bosing.*

Lorkadan uzoqdagi shaharda yashaydigan o‘quvchi 2011-yil mayda Lorkadagi zilzila haqida geologlarning farazi bilan tanishdi. O‘quvchi o‘zi yashaydigan hududda yerosti suvlarining olinishi yerosti suvlarini kamayishiga olib kelganini biladi. U o‘z shahrida zilzila sodir bo‘lishi mumkinligidan xavotirlanmoqda. O‘quvchi yerosti suvlarining olinishi natijasida uning shahrida zilzila bo‘lish xavfini baholashda quyidagi savollardan qaysilarini ko‘rib chiqishi kerak?

**Bir yoki bir nechta** karakchalarni tanlashni yodda tuting.

- Ushbu hududdagi Yer qobig‘ida yoriqlar bormi?
- Ushbu hududning Yer qobig‘idagi kuchlanish tabiiy sabablar tufayli yuzaga keladimi?
- Ushbu hududda yer ostidan nasos yordamida tortib olinadigan suv ifloslanganmi?
- Ushbu hududdagi kunlik o‘rtacha harorat nechaga teng?

**YEROSTI SUVALARINI OLISH VA ZILZILALAR**  
**2011-yil Lorkadagi zilzila**

Ispaniya, Lorka zilzilalar nisbatan tez-tez sodir bo‘lib turadigan hududda joylashgan. 2011-yil mayida Lorkada zilzila sodir bo‘ldi. Geologlarning fikricha, ushbu hududdagi avvalgi zilzilalardan farqli o‘laroq, mazkur zilzilaga inson faoliyati, xususan, yerosti suvlarining nasos yordamida tortib olinganligi sabab bo‘lishi mumkin. Geologlarning faraziga ko‘ra, yer ostidan suvning olinishi yoriq yaqinida kuchlanishning ortishiga olib kelgan, bunda siljish yuz berib, oqibatda zilzila sodir bo‘lgan.

O‘quvchilar ushbu topshiriqda muayyan hududda zilzilalar sodir bo‘lish xavfi haqidagi ma’lumotni ifodalaydigan savol yoki savollarni aniqlashlari uchun Lorkadagi zilzila haqida berilgan ma’lumot va zilzilalar haqidagi o‘z tushunchalaridan foydalanishlari kerak. Bunday ma’lumot birinchi va ikkinchi savollarda o‘z aksini topadi: “*Ushbu bududdagi Yer qobig‘ida yoriqlar bormi?*” va “*Ushbu bududning Yer qobig‘idagi kuchlanish tabiiy sabablar tufayli yuzaga keladimi?*”

<i>Savolning tartib raqami</i>	CS655Q04
<i>Kompetensiya</i>	Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish
<i>Bilim – Sistema</i>	Fanning mazmuniga oid – Yer va fazo
<i>Kontekst</i>	Mahalliy/Milliy – Xavf-xatarlar
<i>Kognitiv daraja</i>	O‘rta
<i>Savol shakli</i>	Bir nechta javob varianti tanlanadigan

**XALQARO TADQIQOTLARDA O'QUVCHILARNING  
O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH**



A photograph of a young person with long dark hair, wearing a denim jacket, sitting at a desk and reading a book. In the foreground, there is a stack of several thick books.

**TOPSHIRIQLARDAN  
NAMUNALAR**

**PISA**

## O'QISH SAVODXONLIGI

O'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos, zaruriyat hisoblanadi. O'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor qaratish, jumladan, uning ma'lumotni tanlashi, tushunishi, talqin qilishini baholash tadqiqotning asosiy maqsadlari dan biridir. O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir.

PISA ko'p sonli o'quvchilarini baholaydi. Bu o'quvchilarning ba'zilari ilmiy yoki kasbiy sohani egallash uchun oliy ta'lim muassasilariga bori shadi, boshqalari ishga joylashish uchun zarur tayyorgarlik ko'nikmalarini egallaydilar, ba'zilari esa umumiyo o'rta ta'limni tamomlashi bilanoq oddiy ishga joylashadilar. Ularning ilm yoki mehnat faoliyatini tanlashidan qat'iy nazar, o'quvchilarning fuqarolik jamiyatida hamda shaxsiy hayotdagi faol ishtiroklarida o'qish savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi.

### Matnlar

"Matn" jumlesi yozilish shakliga ko'ra qo'lyozma, nashr etilgan yoki elektron shaklda bo'ladi. Matnlar, shuningdek, ko'rgazma vositalari, jumladan, diagrammalar, rasmlar, xaritalar, jadvallar, grafiklar va komikslarni ham qamrab oladi.

Shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishish yo'lida matnlarni tushunishi, ulardan foydalanishi, ular ustida mulohaza yuritishi hamda ularga munosabat bildirishi lo zim.

### Matndan ma'lumotlarni olish

Jadvallar, matn bo'limlari yoki butun kitoblardan ma'lumotlarni qidirishning o'zi bir mahoratdir. Axborotni qidirish o'quvchilarning topshiriq talablarini tushunishi, matn tuzilishi haqidagi bilimi hamda matnning mavzuga aloqadorligini baholash qobiliyatlariga asoslangan bo'ladi.

**Tegishli matnni qidirish va tanlash.** Tajribali o'quvchilar faqatgina bitta matnni o'qiganda emas, balki bir necha matnlarni o'qiganda ham ma'lumotlarni tanlay olishadi. Internet muhitidagi ma'lumotlar ko'p hollarda o'quvchining tahlil qila oladigan miqdoridan ko'ra ancha ko'p bo'ladi. Bunday bir necha matn bilan ishlash jarayonida o'quvchi berilgan matnning qaysi biri eng ishonchli, aniq, mavzuga mos keladigan va muhim ekanligi yuzasidan qaror qabul qilishi zarur.

**Tushunish.** Ko‘plab o‘qish mashg‘ulotlari matnda berilgan ma’noni tushunish uchun matnning kengaytirilgan qismlari tahlili va integratsiyasi ni talab etadi. Matnni tushunish (“anglash” deb ham nomlanadi) “vaziyat modeli” deb nomlangan o‘quvchi tomonidan yaratilgan matn nimaga oid ekanligi haqidagi aqliy ifoda sifatida ko‘rilishi mumkin.

Matnning juz’iy ma’nosini ifodalashni o‘rganish o‘quvchidan kichik matnlarni va jumtlalarni tushunishni talab qiladi. Matnni tushunish zarur ma’lumotni topshiriq va savollarga to‘g‘ridan to‘g‘ri moslashtirishga olib keladi. O‘quvchi o‘z imkoniyati doirasida ma’lumotlarni darajalarga bo‘lishi, ularning ustuvorlik darajalarini belgilashi yoki hajmini kichraytirishiga to‘g‘ri kelishi mumkin.

Integratsiya qilib matn yaratishni ifodalash har bir gap bilan alohida ishslashdan to to‘liq matn bilan ishslashgacha bo‘lgan jarayonni talab etadi. O‘quvchi turli xil xulosalarni, oddiy bog‘langandan to murakkabroq ma’no aloqadorligigacha bo‘lgan turini yaratishi lozim bo‘ladi.

### **Baholash va mulohazalar yuritish**

**Sifat va ishonchni baholash.** Tajribali o‘quvchilar matndagi ma’lumotning ishonchliligi va sifatini, ya’ni ma’lumot yaroqli, yangi, to‘g‘ri va bir yoqlama emasligini aniqlay oladilar. Baholash jarayoni ba’zan o‘quvchidan ma’lumot manbasini aniqlash va baholashni talab etadi, jumladan, muallif tajribalimi, yaxshi ma’lumotga ega yoki obyektivmi va hokazo.

**Shakl va mazmun haqida mulohaza yuritish.** Tajribali o‘quvchilar matn yozilishining uslubi va sifati haqida mulohaza yuritishi lozim bo‘ladi. Bu mulohazakorlik muallifning fikri va maqsadini qanday ifodalaganini va matn yozilishining shakli va mazmuni o‘rtasidagi aloqadorlikni baholay oladi.

**Tafovutlarni aniqlash va ular bilan ishslash.** Ko‘p qismli va qaramaqarshi fikrli matnlarga duch kelganda o‘quvchilar shu kabi tafovutlardan va ular bilan ishslash usullaridan xabardor bo‘lishlari lozim. Odatta, tafovutlar bilan ishslash o‘quvchidan o‘zining ishonchli manbalariga asoslanib, qaramaqarshi fikrlarni aniqlashi va ularning ishonchliliginini baholashini talab etadi.

Ushbu ko‘nikmalar zamонавиј о‘qishning ko‘p qismini o‘z ichiga olgани sababli, 15 yoshli bolalarning xilma-xil matnlarni umumlashtirish, taqqoslash, tushunish kabi qiyinchiliklarga nechog‘liq tayyor ekanliklarini aniqlash muhim masala hisobланади.

## 1. SIGIR SUTI

PISA 2018



### Sigir suti

Kirish

*Ko'rsatmani o'qing. So'ng KEYINGISI tugmasining ustiga bosing.*

Ba'zi mamlakatlarda, masalan, AQSHda sigir suti keng iste'mol qilinadi.

Tasavvur qiling, uchta o'quvchi, Aziza, Karim va Salim, AQShdag'i qahvaxonalarining birida o'tiribdi. Qahvaxona egasi qahvaxona deraza oynasiga "5-apreldan keyin bu yerda sigir suti sotilmaydi. Sigir suti o'rniga uning o'rnini bosuvchi soyadan qilingan ichimlik sotiladi", degan e'ltonni osib qo'ydi. Aziza, Karim va Salim qahvaxonada nima uchun sigir suti sotilmaslik sababini bilmоqchi bo'ldi, shuning uchun Aziza smartfonidan foydalanib, internetdan "sigir suti" haqida ma'lumot olmoqchi bo'ldi. Uchala o'quvchi birinchi topilgan ma'lumotni o'qib, uni muhokama qildi.

Birinchi ma'lumotga o'tish uchun "KEYINGISI" tugmasining ustiga bosing.

Mazkur topshiriqlar guruhi ssenariysida uch o'quvchi AQShdag'i qahvaxonalarining biridagi e'longa duch keladi. E'londa qahvaxonada bundan buyon sigir suti sotilmasligi, akchincha, sut o'rniga uning o'rnini bosuvchi soya ichimligi sotilishi haqida aytib o'tilgan. Mazkur e'lon uchala o'quvchini qiziqtirib qo'yadi. Natijada, ular internetdan foydalanib sigir suti haqida ma'lumot qidiradilar va topilgan ma'lumotni muhokama qiladilar. Ushbu vaziyat shaxsiy vaziyat sifatida tavsiflanadi, chunki uchala o'quvchi o'zlarining shaxsiy qiziqishlarini qondirish maqsadida internet orqali topilgan ma'lumotni o'qiydi.

Bo'lim matni ikkita veb-sahifadan iborat. Birinchi veb-sahifa sut mahsulotlarini sotadigan "Fermadan do'kongacha" deb nomlangan korxona haqida. Ikkinci veb-sahifa esa sog'lom turmush tarzini yorituvchi veb-sahifa bo'lib, unda "Sigir sutini iste'mol qilmang!" nomli maqola berilgan. Ushbu matn ko'p tanlovli, statistikaga oid, davomiy va muzokarali matn sifatida tasnifланади.

Avvaliga, o'quvchiga faqat "Fermadan do'kongacha" veb-sahifasi beriladi. Mazkur veb-sahifaning mazmuniga doir bir necha savollar beriladi. Keyin ssenariyning yangilangan shakli berilib, o'quvchi ikkinchi veb-sahifaga o'tadi. Ikkinci sahifani o'qib bo'lgach, o'quvchi matnning faqat mazmuni-ga qaratilgan bir qator savollarga javob beradi. So'ngra o'quvchiga har

ikkala veb-sahifalardan olingan ma'lumotlarni umumlashtirishga mo'ljallangan topshiriqlar beriladi.

Mazkur usul o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishga mo'ljallangan yangi turdag'i ko'p tanlovli savollarda qo'llanilgan. Bunday yondashuv o'quvchilarga, avvaliga, ma'lum bir matnga aloqador savol-larga javob berishda o'z bilim va ko'nikmalarini namoyish etishga va ko'p tanlovli matnlardagi ma'lumotlarni o'zlashtirishda shu bilimlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu juda muhim konstruktiv tuzilmali savol hisoblanadi, chunki alohida tartibda berilgan matn ko'rinishidagi ma'lumotni yoki ayni bir matn ichidagi bir nechta ma'lumotlarni o'qib, tushunadigan, ammo ko'p tanlovli matnlarni umumlashtirishda qiyonaladigan o'quvchi-lar bo'lishi mumkin. Shuning uchun, mazkur tuzilma o'quvchilarga kamida bo'limdagi ba'zi topshiriqlarni bajarishda turli darajadagi bilim va ko'nikmalar orttirish imkonini beradi.

“Sigir suti” nomli topshiriqlar guruhi o'rtacha qiyinlikdagi savollar-dan iborat. Topshiriqlar guruhi uchun keltirilgan ikkala veb-sahifa alohi-da bitta matnli topshiriqlar guruhiga qaraganda ma'lum bo'lim tarkibidagi topshiriqlarni bajarish uchun berilgan bir necha ma'lumotlarni qamrab olgan. Bundan tashqari, o'quvchidan har ikkala veb-sahifada berilgan ma'lumotlarning bir biriga bog'liqligini yoki bir-biridan farqlanishini aniqlashni talab etadi. Bunday aqliy mashqlar o'quvchidan faqat bitta matn ichida barcha ma'lumotlarni jamlagan kattaroq hajmdagi matnga qaraganda ko'proq e'tibor va bilimni talab etadi.

PISA

Sigir suti  
Savol 1/9

O'ng tomondagi “Fermadan do'kongacha” matnini o'qing.

Savolga javob berish uchun quyidagi javob variantlaridan birini tanlang.

Xalqaro Sut Mahsulotlari Asosattsiyasi (IDFA) ma'lumotlariga ko'ra, sog'liqni saqlash sohasidagi yetakchi mutaxassislar va tashkilotlar quyidagi mulohazalardan qaysi birini ma'qullaydi?

- Sut va sut mahsulotlarini iste'mol qilish vazn ortishiga sabab bo'ladi.
- Sut organizm uchun kerakli vitamin va minerallarga boy.
- Sut tarkibida minerallarga qaraganda ko'proq vitaminlar mavjud.
- Sut iste'mol qilish osteoporoz kasalligiga sababchi bo'ladi.

Fermadan bozorga

www.fermasutmahsulotlaribozori.com

FERMADAN DO'KONGACHA

Biz haqimizda Mahsulotlarimiz Oziq-ovqat

**Sutning ozuqaviy qiymati: Behisob foysa!**  
“Fermadan do'kongacha” korxonasida ishlab chiqarilayotgan sut tarkibida kalsiy, oqsil, vitamin D, vitamin B12, riboflavin va kalyi kabi foydali mikroelementlar mavjud. Usbu vitaminlar va foydali minerallar korxonada ishlab chiqarilayotgan sut mahsulotlarini to'g'ri ovqatlanish rationsining eng muhim qismi ekanini ko'rsatadi. Sut mahsulotlarining har kunlik iste'moli inson organizmiga uchun kerakli vitamin va minerallar bilan ta'minlaydi.

“Fermadan do'kongacha” korxonasida ishlab chiqarilayotgan sut mahsulotlari tana vazning ortib ketishini oldini oladi va kerakli tana vaznini saqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, sut suyaklarining mustahkamligini va zichiligini ham oshiradi. Hattoki, sut yurak-qon tomir faoliyatini yaxshilaydi va saraton kasalining yuzaga kelishini oldini oladi. Bir stakan sut iste'mol qilish inson organizmiga kerakli vitaminlar va minerallar bilan ta'minlaydi.

Iravyn shahridagi Kaliforniya pediatriya universiteti professori Bill Siersning fikricha, sut tarkibidagi foydali ozuqaviy elementlar butun-bir yaxlit holda bo'ladi. Xalqaro Sut Mahsulotlari Assosattsiyasi ham bu fikrni tasdiqlamoqda. Haqiqatan, IDFA assosattsiyasi tibbiyot mutaxassislarini va tibbiy tashkilotlar ham ayni fikrni qo'llab-quvvatlashini ta'kidlagan.

Sut tarkibida to'qquzta eng muhim foydali elementlar to'liq bir o'zi ozuqaviy uyg'unlikni tashkil etadi. Kalsiy va vitamin D ga boy bo'lishi bilan birgalikda, sut vitamin A, oqsil va kalyiha ham boy hisoblanadi. Shifokorlar tomonidan sut mahsulotlarini ko'p iste'mol qilish tavsiya qilinadi. Tibbiyot xodimlari va ilm-fan jamiyatni tomonidan sutning foydali tomonlari ko'p yillardan beri ta'kidlab kelinadi. Ilm-fan jamiyatni Milliy Osteoporoz Tashkiloti, Jarrohlar uyushmasi, Milliy sog'liqi saqlash instituti, Amerika Tibbiyot Fanlari Assosattsiyasini o'z ichiga oladi.

Xalqaro Sut Mahsulotlari Assosattsiyasi, 27-sentyabr, 2007-yil.

Mazkur bo‘limda o‘quvchidan IDFA tashkiloti tomonidan taqdim etilgan ma’lumotni o‘qib, uning mazmunini tushunishi talab etiladi. Xususan, o‘quvchi IDFA ma’lumotlariga ko‘ra “sut tarkibidagi foydali ozuqaviy elementlar butun-bir yaxlit holatda bo‘ladi”, degan fikr “ko‘pgina sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat ko‘rsatadigan mutaxassislar va tashkilotlar ham ayni fikrni qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlagan” ekanini va sut o‘zida juda ko‘p muhim mikroelementlar, vitaminlar va ozuqaviy moddalardan iboratligini biladi. O‘quvchi savolning to‘g‘ri javobi B, ya’ni sut kerakli vitaminlar va minerallarga boy ekanini topishi uchun veb-sahifada berilgan jumla mazmunini tushunishining o‘zi yetarli.

<i>Kognitiv jarayon</i>	Matn mazmunini o‘qib tushunish
<i>Javob formati</i>	Javobi tanlanadigan
<i>Savolning qiyinlik darajasi</i>	323 – 1b-daraja

**PISA**

**Sigir suti**  
Savol 2/9

*O‘ng tomondagi “Fermadan do‘kongacha” matnini o‘qing.*  
Savolga javob berish uchun quyidagi javob variantlaridan birini tanlang.

Mazkur matnning asosiy mazmuni nimadan iborat?

- Sut mahsulotlari tana vaznini kamayishiga olib kelishini ta’kidlashdan.
- “Fermadan do‘kongacha” korxonasida ishlab chiqarilayotgan sut mahsulotlarini boshqa sut mahsulotlari bilan taqqoslashdan.
- Aholini yurak bilan bog‘liq kasalliklardan ogohlantirishdan.
- “Fermadan do‘kongacha” korxonasida ishlab chiqarilayotgan sut mahsulotlarini iste’mol qilishga undashdan.

Fermadan bozorga  
www.fermasutmahsulotlaribozori.com

FERMADAN DO‘KONGACHA

Biz haqimizda Mahsulotlarimiz Oziq-ovqat

**Sutning ozuqaviy qiymati: Behisob joyda!**  
“Fermadan do‘kongacha” korxonasida ishlab chiqarilayotgan sut mahsulotlari tana vazning ortib ketishini oldini oladi wa kerakli tana vaznini saqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, surʼaklarining mustahkamligini va zichligini ham oshiradi. Hattoki, sut yurak-qon tomir faoliyatini yaxshilaydi va saraton kasalining yuzaga kelishini oldini oladi. Bir stakan sur iste’mol qilish inson organizmini kerakli vitaminlar va minerallar bilan ta’minlaydi.

“Fermadan do‘kongacha” korxonasida ishlab chiqarilayotgan sut mahsulotlari tana vazning ortib ketishini oldini oladi wa kerakli tana vaznini saqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, surʼaklarining mustahkamligini va zichligini ham oshiradi. Hattoki, sut yurak-qon tomir faoliyatini yaxshilaydi va saraton kasalining yuzaga kelishini oldini oladi. Bir stakan sur iste’mol qilish inson organizmini kerakli vitaminlar va minerallar bilan ta’minlaydi.

Irvayn shahridagi Kaliforniya pediatriya universiteti professori Bill Siersning fikricha, sut tarkibidagi foydali ozuqaviy elementlar butun-bir yaxlit holda bo‘ladi. Xalqaro Sut Mahsulotlari Asossatsiyasi ham bu fikrni tasdiqlamoqda. Haqiqatan, IDFA asossatsiyasi tibbiyot mutaxassislarini va tibbiy tashkilotlar ham ayni fikrni qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlagan.

Sut tarkibida to‘qqizta eng muhim foydali elementlar to‘liq bir o‘zi ozuqaviy uyg‘unlikni tashkil etadi. Kalsi va vitamin D ga boy bo‘lishi bilan birlgilikda, sut vitamin A, oqsil va kalyiga ham boy hisoblanadi. Shifokorlar tomonidan sut mahsulotlarini ko‘p iste’mol qilish tavsiya qilinadi. Tibbiyot xodimlari va ilm-fan jamiyatini tomonidan sutning foydali tonomlari ko‘p yillardan beri ta’kidlab kelinadi. Ilm-fan jamiyatni Milliy Osteoporoz Tashkiloti, Jarrohlar uyushmasi, Milliy sog‘liqni saqlash instituti, Amerika Tibbiyot Fanlari Asossatsiyasini o‘z ichiga oladi.

Xalqaro Sut Mahsulotlari Asossatsiyasi, 27-sentyabr, 2007-yil.

Mazkur topshiriqda o‘quvchidan veb-sahifaning asosiy mazmuni aniqlash so‘ralganiga e’tibor qarating. O‘quvchidan matnda ilgari surilgan asosiy g‘oyani aniqlash so‘ralmagan. Buning o‘rniga, o‘quvchi veb-sahifaning umumiyligi mazmunini tushunishi va ushbu matn nima sababdan berilganini va u qanday yozilganini tushunishi kerak. O‘quvchi asosiy diqqat-e’tiborini matnning mazmuni va shakliga qaratishi

kerak. Mazkur savolning javobi D, ya’ni “Fermadan do‘kongacha” korxonasida ishlab chiqarilayotgan sut mahsulotlarini iste’mol qilishga undashdan iborat.

<i>Kognitiv jarayon</i>	Matn mazmunini o‘qib tushunish
<i>Javob formati</i>	Javobi tanlanadigan
<i>Savolning qiyinlik darajasi</i>	452 –2-daraja

The screenshot shows a digital test interface with a blue header bar. On the left, it says "PISA". In the center, there are four colored squares (white, light green, medium green, dark green) followed by a circular button. On the right, there are icons for a question mark, back, forward, and search. Below the header, a blue bar contains the text "Sigir suti". Underneath, a text box contains the following text:

Ko‘rsatmani o‘qing. So‘ng KEYINGISI tugmasining ustiga bosing.

Aziza, Karim va Salim qahvaxona egasining sigir sutini sotmaslik qarorini muhokama qilishmoqda. Salim, “Ehtimol, sigir suti qimmatlashayotgandir” – dedi. Karim o‘zining smartfonini qo‘liga oldi. “Bo‘lishi mumkin, ammo men ham sigir suti haqida internetdan ma’lumotlar topdim. Sut haqida eng so‘nggi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan linkni sizlarga tashlayman”, – dedi u.

Aziza va Salim Karim tashlagan linkni ochib, maqolani o‘qidi. Maqolada shunday jumlalar yozilgandi “Sigir sutini iste’mol qilmang!”.

Keyingi ma’lumotlarga o‘tish uchun KEYINGISI tugmasining ustiga bosing.

Topshiriqlar guruhining mazkur qismida, o‘quvchilar ssenariyning yangilangan shaklini o‘qiydi. Unda o‘quvchilardan biri sigir suti haqida boshqacha ma’lumot topadi va uni o‘rtoqlari bilan muhokama qiladi. Maqola “Sigir sutini iste’mol qilmang!” deb nomlanib, mazkur maqolada sigir suti haqida ijobjiy fikr yuritilmaganini ko‘rsatadi. 3-savolda ushbu mavzudan ko‘zda tutilgan asosiy maqsadni yorituvchi maqolaning to‘liq matni berilganiga e’tibor qarating.



## Sigir suti

Savol 4/9

*O'ng tomondagi "Sigir sutini iste'mol qilmang!" matnini o'qing.*

*Savolga javob berish uchun jadvaldagi javob variantlaridan birini tanlang.*

Quyida berilgan mulohazalar doktor Garzaning uchbu maqolaning yozishdan maqsadini ifoda qiladimi? Har bir mulohaza uchun HA yoki YO'Q variantini tanlang.

Ushbu mulohaza maqolaning maqsadini ifoda etadimi?	Ha	Yo'q
Sut mahsulotlarining inson salomatligiga foydasini aniqlash	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Sigir sutiga oid turli ilmiy topilmalarni muhokama qilish	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Sut va boshqa sut mahsulotlari tadqiq etilmaganini ta'kidlash	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>

Fermadan do'kongacha

Sigir sutini iste'mol qilmang!

[www.bugunning salomatlik to'g'risidagi maqolalari.com/sut](http://www.bugunning salomatlik to'g'risidagi maqolalari.com/sut)

### BUGUNNING SALOMATLIK TO'G'RISIDAGI MAQOLALARI

#### SIGIR SUTINI ISTE'MOL QILMANG!

Tibbiyot sharxlovchisi, doktor R.Garza



Sigir suti AQSHda istiqomat qiluvchi aholi hayotining ajralmas qismini tashkil etadi. Chaqaloqlarga sigir suti shishalarda beriladi. Bolalar sur qo'shilgan bo'tqalar yeydi. Hattoki, o'spirinlar ham vaqtigaqtan bilan muzdek sur iste'mol qilishadi. Ha, sigir suti dunyoning ko'p mamylatlarida inson kundalik ozuqasining asosiy qismini tashkil qiladi. Shunga qaramasdan, bu sohada olib borilayotgan ko'plab tadqiqotlarning natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, mashhur Amerika shiorlaridan birida aytilganidek, sigir suti "chaqaloqlar" uchun foydali bo'lmasligi mumkin.

AQSH Qishloq xo'jalik departamenti, Amerika Sut mahsulotlari kengashi, Sut mahsulotlarini boshqarish qo'mitasi va boshqa turli taskilotlar ko'p yillar mobaynida sutning foydali tomonlarini ta'kidlab kelishgan. Ular o'spirinlarga kuniga kamida uch stakan sur ichishni tavsiya qiladilar. Shunday bo'lsada, keyingi yillarda bu borada olib borilgan tadqiqotlar natijasi sutning suyakni mustahkamlash kuchi va uning inson salomatligi uchun foydali tomonlari so'roq ostida qolayotganligini ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar natijasi sizni ham hayratga solishi mumkin.

Sutning inson salomatligiga ta'siri haqidagi eng so'nggi va muhim tadqiqotlardan biri 2014-yilda "British Medical Journal" jurnalining oktabr sonida chop etilgan. Mazkur tadqiqot natijalari sur iste'moli borasida keskin mulohazalarga olib keldi. Ushbu tadqiqotda Shvetsiyadagi 10000 nafar odamlar 20 yildan 30 yilgacha bo'lgan davr mobaynida o'rganilan. O'rghanishlar natijasi shuni ko'rsatadi, ayol sur iste'mol qiluvchilar suyak mo'rtligidan ko'proq aziyat chekishgan. Bundan tashqari, erkak va ayol sur iste'mol qiluvchilar yurak xastaliklari va saraton kasalligiga moyil bo'lishgan. Bu natijalar boshqa shu sohada olib borilgan tadqiqot natijalari bilan mos keladi.

Tibbiy me'yorlar mas'ul qo'mitasi (PCRM) sur iste'moli bilan bog'liq inson salomatligi muammosi borasida o'z izohlarini bildirgan. Unda bayon etilishicha, sur va sur mahsulotlari suyaklar uchun hech qanday foydasi yo'q yoki juda kam foydali hisoblanadi. PCRM qo'mitasi sur bilan bog'liq ba'zi muayyan muammolar haqida ham ma'lumotlar beradi.

"Kundalik sur mahsulotlari va sur tarkibidagi oqsil, saxaroza, yog'lar va to'yingan yog'lar bolalarning salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirishi hamda semizlik, diabet va yurak xastaliklarini keltirib chiqarishi mumkin."

Bu mulozahalar o'zining keskinligi bilan ajralib turadi va mazkur natijalarning to'g'riliгини tasdiqlash uchun ko'plab izlanishlar olib borilishi kerak. Shunga qaramasdan, sigir suti biz o'ylaganimizdan ko'ra inson organizmiga kam foya berishi borasida bir qator dalil-isbotlar mavjud. Agar bu mulohaza va tadqiqot natijalari to'g'ri ekani isbotlansa, sigir sutini iste'mol qilmaslik vaqtiga keldi.

Mazkur topshiriqda o'quvchi jadvalning har bir ustuni uchun "Ha" yoki "Yo'q" javob variantlaridan to'g'risini tanlashi kerak. Berilgan savol o'quvchidan jadvalda doktor Garzaning maqolani yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini to'liq yoritib beradigan jumlanı topib belgilashni talab etadi. O'quvchi maqolaning umumiylarini o'qib tushunishi va maqolaning mazmuni qay tariqa ifoda qilinayotganini aniqlashi kerak. So'ngra o'quvchi jadvalda berilgan har bir mulohaza maqolani yozishdan ko'zlangan asosiy

maqsadni ifoda qilish yoki qilmasligini topadi. Mazkur savol bo'yicha to'g'ri javob berish uchun o'quvchi jadvaldagi barcha uchala qatordagi mulohazalarga to'g'ri javob belgilashi kerak. To'g'ri javob tartibi: "HA", "YO'Q".

<i>Kognitiv jarayon</i>	Matn mazmuni va shakliga e'tibor qaratish
<i>Javob formati</i>	Murakkab, ko'p tanlovli
<i>Savolning qiyinlik darajasi</i>	539 – 3-daraja

**PISA**

**Sigir suti**  
Savol 6/9

*O'ng tomondagi "Sigir sutini iste'mol qilmang!" matrinni o'qing. Savolga javobni katakcha ichiga yozing.*

Doktor Garza o'quvchilarini "hayratlanish" mumkin bo'lgan bir necha tadqiqot natijalarini havola qildi.

Ulardan birini yozing.

Fermadan do'kongacha Sigir sutini iste'mol qilmang!

[www.bugunning salomatlik to'g'risidagi maqolaalari.com/sut](http://www.bugunning salomatlik to'g'risidagi maqolaalari.com/sut)

**BUGUNNING SALOMATLIK TO'G'RISIDAGI MAQOLALARI**

**SIGIR SUTINI ISTE'MOL QILMANG!**

**Tibbiyot sharxlochchisi, doktor R.Garza**

Sigir suti AQSh da istiqomat qiluvchi aholi hayotining ajralmas qismini tashkil etadi. Chaqaloqlarga sigir suti shishalarda beriladi. Bolalar sut qo'shilgan bo'tqalar yeydi. Hattoki, o'spirinlar ham vaqtiga bilan muzdek sut iste'mol qilishadi. Ha, sigir suti dunyoning ko'p mamylakatlarda inson kundalik ozuqasining asosiy qismini tashkil qiladi. Shunga qaramasdan, bu sohada olib borilayotgan ko'plab tadqiqotlarning natijasi, shuni ko'rsatmoqdaki, mashshur Amerika shiorlaridan birida aytiganidek, sigir suti "chaqaloqlar" uchun foydali bo'lmasligi mumkin. AQSH Oishloq xo'jalik departamenti, Amerika Sut mahsulotlari kengashi, Sut mahsulotlari boshqarish qo'mitasi va boshqa turli tashkilotlar ko'p yillarda mobaynida sutning foydali tomonlarini ta'kidlab kelishgan. Ular o'spirinlarga kuniga kamida uch stakan sut ichishni tavsiya qildilar. Shunday bo'lsada, keyingi yillarda bu borada olib borilgan tadqiqotlarning natijasi sutning suyakini mustahkamlash kuchi va uning inson salomatligi uchun foydali tomonlari so'roq ostida qolayotganligini ko'rsatmoqda. Tadqiqotlarning sizini ham hayratga solishi mumkin.

Sutning inson salomatligiga ta'siri haqidagi eng so'nggi va muhim tadqiqotlardan biri 2014-yilda "British Medical Journal" jurnalining oktabr sonida chop etilgan. Mazkur tadqiqot natijalari sut iste'moli borasida keskin mulohazalarga olib keldi. Usbu tadqiqotda Shvetsiyadagi 10000 nafar odamlar 20 yildan 30 yilgacha bo'lgan davr mobaynidagi o'rganilgan. O'rganishlar natijasi shuni ko'satadiki, ayol sut iste'mol qiluvchilar suyak mo'rtligidan ko'proq aziyat chekishgan. Bundan tashqari, erkak va ayol sut iste'mol qiluvchilar yurak xastaliklari va saraton kasalligiga moyil bo'lishgan. Bu natijalar boshqa shu sohada olib borilgan tadqiqot natijalari bilan mos keladi.

Tibbiy me'yorlar mas'ul qo'mitasi (PCRM) sut iste'moli bilan bog'liq inson salomatligi muammosi borasida o'z izohlarini bildirgan. Unda bayon etilishicha, sut va sut mahsulotlari suyaklar uchun hech qanday foydasi yo'q yoki juda kam foydali hisoblanadi. PCRM qo'mitasi sut bilan bog'liq ba'zi muayyan muammolar haqida ham ma'lumotlar beradi.

"Kundalik sut mahsulotlari va sut tarkibidagi oqsil, saxaroza, yog'lar va to'yingan yog'lar bolalarning salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirishi hamda semizilik, diabet va yurak xastaliklarini keltirib chiqarishi mumkin."

Bu mulozahalar o'zining keskinligi bilan ajralib turadi va mazkur natijalarning to'g'riliгини tasdiqlash uchun ko'plab izlanishlar olib borilishi kerak. Shunga qaramasdan, sigir suti biz o'ylaganimizdan ko'ra inson organizmiga kam foya berishi borasida bir qator dalil-isbotlar mayjud. Agar bu mulohaza va tadqiqot natijalari to'g'ri ekani isbotlansa, sigir sutini iste'mol qilmaslik vaqt keldi.

Mazkur savolda o‘quvchilardan maqolada berilgan tadqiqot natijalarini o‘qib tushunishi va ulardan birini yozishi talab etilgan. Bu savolda o‘quvchilardan tadqiqot natijalaridan birini aniqlash yordamida maqolada berilgan ma’lumot mazmunini ifodalash va uni yozish so‘ralmoqda.

<i>Kognitiv jarayon</i>	Matnning to‘g‘ridan to‘g‘ri (asosiy) mazmunini ifodalash
<i>Javob formati</i>	Ochiq savol (javobi yoziladigan)
<i>Savolning qiyinlik darajasi</i>	398 – 3-daraja

**Javob to‘liq qabul qilinadi (kod 1):** Matnda berilgan izlanish natijalaridan iqtiboslar yoki jumlalar keltiriladi:

1. Ayol sut iste’mol qiluvchilar suyak mo‘rtligidan ko‘proq aziyat chekishgan.
2. Bundan tashqari, erkak va ayol sut iste’mol qiluvchilar yurak xastaliklari va saraton kasalligiga moyil bo‘lishgan.
  - Sut ichadigan ayollarda suyak sinish holatlari ko‘proq kuzatilgan.
  - Sut iste’mol qiladigan insonlarda ko‘proq yurak xastaliklari va saraton kasalliklari kuzatilgan.



## Sigir suti Savol 7/9

*Ekrandagi har ikkala ma'lumotlarni ustiga bosib, o'qing. Savolga javob berish uchun jadvalda berilgan javob variantlaridan birini tanlang.*

Sut haqidagi ikkala matnga asoslanib aytinchei, jadvaldagi mulohazalar faktmi yoki fikrmi?

Mulohaza faktmi yoki fikrmi?	Fakt	Fikr
Sutning inson salomatligiga ta'siri haqidagi izlanishlar nati-jasi hayratlanarli.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Tadqiqotlar sur iste'moli sog'-liqqa salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Bir necha tadqiqotlar sutning suyakni mustahkamlovchi ku-chini shubha ostida qoldirdi.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Sut va boshqa sut mahsulotlari ozish uchun eng yaxshi vosita.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>

Fermadan do'kongacha

Sigir sutini iste'mol qilmang!



www.bugunning salomatlik to'g'risidagi maqolaalari.com/sut

## BUGUNNING SALOMATLIK TO'G'RISIDAGI MAQOLALARI

## SIGIR SUTINI ISTE'MOL QILMANG!

Tibbiyot sharxlovchisi, doktor R.Garza



Sigir suti AQSh da istiqomat qiluvchi aholi hayotining ajralmas qismini tashkil etadi. Chaqaloqlarga sigir suti shishalarda beriladi. Bolalar sur qo'shilgan bo'tqalar yeydi. Hattoki, o'spirinlar ham vaqtigaqtan bilan muzdekk sur iste'mol qilishadi. Ha, sigir suti dunyoning ko'p mulokatlardicha inson kundalik ozuqasining asosiy qismini tashkil qildi. Shunga qaramasdan, bu sohada olib borilayotgan ko'plab tadqiqotlarning natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, mashhur Amerika shiorlardidan birida aytilanidek, sigir suti "chaqaloqlar" uchun foydali bo'imasligi mumkin.

AQSH Qishloq xo'jalik departamenti, Amerika Sur mahsulotlari kengashi, Sur mahsulotlari boshqarish qo'mitasi va boshqa turli tashkilotlar ko'p yillard mobaynida sutning foydali tomonlarini ta'kidlab kelishgan. Ular o'spirinlarga kungi kamida uch stakan sur ichishni tavsiya qiladilar. Shunday bo'lsada, keyingi yillarda bu borada olib borilgan tadqiqotlar natijasi sutning suyakni mustahkamlash kuchi va uning inson salomatligi uchun foydali tomonlari so'roq ostida qolayotganligini ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar natijasi sizni ham hayratga solishi mumkin.

Sutning inson salomatligiga ta'siri haqidagi eng so'nggi va muhim tadqiqotdardan biri 2014-yilda "British Medical Journal" jurnalining oktabr sonida chop etilgan. Mazkur tadqiqot natijalari sur iste'moli borasida keskin mulohazalarga olib keldi. Ushbu tadqiqotda Shvetsiyadagi 10000 nafar odamlar 20 yilden 30 yilgacha bo'lgan davr mobaynida o'r ganilgan. O'r ganishlar natijasi shuni ko'rsatadi, ayol sur iste'mol qiluvchilar suyak mo'rtigidan ko'proq aziyat chekishgan. Bundan tashqari, erkak va ayol sur iste'mol qiluvchilar yurak xastaliklari va saraton kasalligiga moyil bo'lishgan. Bu natijalar boshqa shu sohada olib borilgan tadqiqot natijalari bilan mos keladi.

Tibbiy me'yorlar mas'ul qo'mitasi (PCRM) sur iste'moli bilan bog'liq inson salomatligi muammosi borasida o'z izohlarini bildirgan. Unda bayon etilishicha, sur va sur mahsulotlari suyaklar uchun hech qanday foydasi yo'q yoki juda kam foydali hisoblanadi. PCRM qo'mitasi sur bilan bog'liq ba'zi muayyan muammolar haqida ham ma'lumotlar beradi.

"Kundalik sur mahsulotlari va sur tarkibidagi oqsil, saxaroza, yog'lar va to'yingan yog'lar bolalarning salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirishi hamda semizlik, diabet va yurak xastaliklarini keltirib chiqarishi mumkin."

Bu mulohazalar o'zining keskinligi bilan ajralib turadi va mazkur natijalarning to'g'riligini tasdiqlash uchun ko'plab izlanishlar olib borilishi kerak. Shunga qaramasdan, sigir suti biz o'ylaganimizdan ko'ra inson organizmiga kam foya berishi borasida bir qator dalil-isbotlar mavjud. Agar bu mulohaza va tadqiqot natijalari to'g'ri ekani isbotlansa, sigir sutini iste'mol qilmaslik vaqtini keldi.

Mazkur savolda o'quvchidan har ikkala veb-sahifada berilgan ma'lumotlarni umumlashtirishi va jadvalda berilgan mulohazalar veb-sahifada berilgan faktlarni yoki fikrlarni ifoda qilishini aniqlashi so'ralgan. O'quvchi berilgan to'rtala savoldan uchtasida to'g'ri javob bergan taqdirda uning javobi to'liq qabul qilinadi. Savolning to'g'ri javoblari quyidagi tartibda: Fikr, Fakt, Fakt, Fikr.

Kognitiv jarayon	Bir necha manbalarga tayanib xulosa chiqarish va umumlashtirish
Javob formati	Murakkab, ko'p tanlovli
Savol manbasi turi	Turli
Savolning qiyinlik darajasi	662–5-daraja

## 2. PARRANDACHILIK FORUMI

PISA

Parrandachilik forumi

Kirish

Kirish qismini o‘qing. So‘ng KEYINGISI tugmasining ustiga bosing.

Siz yaqindagina parrandachilik bilan shug’ullanish uchun fermaga ko‘chib o‘tgan qarindoshingiznikiga tashrif buyurdingiz. Siz mezbon xolangizdan: “Jo‘jalarni parvarish qilishni qanday o‘rgangansiz?” deb so‘raysiz.

U: “Biz jo‘jalarni parvarish qilish haqida ko‘p odamlar bilan suhbatlashganimiz. Qolaversa bu haqida internetda ham manbalar ko‘p. Masalan, men foydalanishi yoqtiradigan “Parrandalar salomatligi” forumi bor. Yaqindagina bir tovug‘im oyog‘ini sindirib olganda mana shu forumning menga juda katta foydasini tegdi. Men sizga o‘sha suhbatimni ko‘rsataman”.

Forumni o‘qish uchun KEYINGISI tugmasining ustiga bosing.

Ushbu matnda o‘quvchi tovuq boqadigan oilaga tashrif buyuradi. Uning xolasi tovuq salomatligiga bag‘ishlangan va yaqinda tovuqlaridan biri shikastlanganda foydasi tekkan internet forumini tasvirlab beradi. Holat shaxsiy deb tasniflanadi, chunki unda internet forumidagi shaxsiy qiziqishlar qanoatlantiriladi.

Bu qismdag‘i matn xolasi tomonidan foydalaniladigan veb-forumdag‘i xabarlar to‘plamidir (forumdag‘i postlar turli mualliflar tomonidan har xil vaqtda yozilgan).

Ushbu matn o‘quvchining bir qator qobiliyatlarini tekshirishga mo‘ljallangan. U qisqa, lekin bir necha fikrlarni e’tiborga olish joiz bo‘lgan bir nechta murakkablikga ega matnlarning va yuborilgan xabarlarning ishonchlilagini aniqlash uchun ularning kelib chiqishi va tarkibini baholashi kerak.



## Parrandachilik forumi

Savol 1/7

O'ng tomondagi *Parrandalar salomatligi forumiga* qarang. Savolga javob berish uchun tanlangan javobni bosing.

- Ivana\_88 nimani bilishni xohlaydi?
- A Shikastlangan tovuqqa aspirin bersa bo'ladimi?
  - B Shikastlangan tovuqqa necha mahal aspirin berish mumkin?
  - C Shikastlangan tovuq bo'yicha veterinar bilan qanday bog'lanish mumkin?
  - D Shikastlangan tovuqning og'riq darajasini aniqlash mumkinmi?

Xabarlar Ivana_88 xabariga mos-mi?	Ha	Yo'q
NellieB79 xabari	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Monie xabari	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Avian_Dils xabari	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Bob xabari	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Frank xabari	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>

www.parrandasog'ligi.com/aspirin-parrandalar

**Parrandalar salomatligi**  
Sog'lom parrandalar uchun sizning onlayn manbangiz

Sahifa haqida rasmlar Forum

**Ivana\_88 MUHOKAMANI BOSHLOVCHI** Yuborildi: 28-oktabr 18:12  
Hammaga salom,  
Tovug'imga aspirin bersam bo'ladimi? U 2 yoshda, mening fikrimcha u oyog'ini shikastlab olgan. Dushanba kungacha veterinariga olib bora olmayman, shuningdek, veterinar ham qo'ng'iroyqa javob bermayapti. Tovug'imda og'riq kuchliga o'xshaydi. Üni veterinariga olib borgunimga qadar og'riqsizlantriruvchi biror narsa bermoqchiman. Yordamingiz uchun rahmat.

**NellieB79** Yuborildi: 28-oktabr 18:36  
Aspirin tovuqlar uchun xavfsiz yoki xavfliligini bilmayman. Men qushlarimga biror dorishidan oldin veterinarim bilan maslahatlashaman. Bilishimcha, inson sog'ligi uchun xavfsiz bo'lgan ba'zi dorilar qushlar uchun juda xavfli bo'lishi mumkin.

**Monie** Yuborildi: 28-oktabr 18:51  
Tovuqlarimdan biri shikastlanganda men unga aspirin berganman. Hech qanday muammo bo'lmagan. Keyingi kuni men veterinariga bormaganman, tovug'im yaxshi bo'lib qolgan edi. Menimcha, agar dorini juda ko'p bersangiz xavfli bo'lishi mumkin. Shuning uchun belgilangan dozadan ko'p bermang. U yaxshi bo'lib ketadi, deb umid qilaman!

**Avian\_Dils** Yuborildi: 28-oktabr 19:07  
Salom! Qushlar ozuqasi bo'yicha mendagi eng arzon narxlarni birrov ko'rib chiqishni unutmang. Aynan hozir katta chegirmalar bo'imloqda!

**Bob** Yuborildi: 28-oktabr 19:15  
Jo'ja kasal ekanligini qanday bilsam bo'ladi, kim ayta oladi? Rahmat

**Frank** Yuborildi: 28-oktabr 19:21  
Salom Ivana  
Men qushlar veteraniman. Shikastlangan parrandalarga, agarda ularda og'riq belgilari kuzatilayotgan bo'lsa aspirin bersa bo'ladi. Men qushlarga aspirin yozayotganimda "Klinikal Avian Medicin"da nashr etilgan yo'riqnomaga amal qilaman. Jo'jalar tana vaznidagi har bir kg uchun 5 mg aspirin qabul qiladilar. Siz veterinar qabuliga borguningizcha tovuqqa bir kunda 3–4 mahal aspirin berishingiz mumkin. Veterinar maslahatiga amal qilish juda muhim. Omad!

Kognitiv jarayon	To'liq ma'noni anglash
Javob formati	Javobi tanlanadigan
Qiyinlik darajasi	328–1b-daraja



## Parrandachilik forumi

Savol 2/7

O'ng tomondagi *Parrandalar salomatligi forumiga* qarang. Savolga javob berish uchun tanlangan javobni bosing.

Nima uchun Ivana\_88 internet forumga savol joylashga qaror qildi?

- A Chunki u veterinarni qanday topishni bilmagan edi.
- B Chunki u tovug'dagi muammoni jiddiy deb o'ylamaydi.
- C Chunki u tovug'iga imkon qadar tez yordam bermoqchi.
- D Chunki uning veterinarga borish uchun mablag'i yo'q.

[www.parrandasog'ligi.com/aspirin-parrandalar](http://www.parrandasog'ligi.com/aspirin-parrandalar)

### Parrandalar salomatligi

Sog'lom parrandalar uchun sizning onlayn manbangiz



Sahifa haqida rasmlar

Forum

Ivana\_88 MUHKAMANI BOSHLOVCHI

Yuborildi: 28-oktabr 18:12

Hammaga salom,

